



O'zbekiston Respublikasi  
Ichki ishlar vazirligi nashri

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: [www.postda.uz](http://www.postda.uz) / E-mail: [info@postda.uz](mailto:info@postda.uz)

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

# Postda

# На посты

2023-yil  
19-oktabr  
payshanba

№ 42 (4632)



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 16-oktabr kuni Samarqand shahrida Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh assambleyasining 25-sessiyasining ochilish marosimida ishtirot etdi.

Global sayyoqlik tashkilotining 140 dan ziyod mamlakat vakillari ishtirokida 20-oktabr kuniga qadar davom etadigan bosh tadbirida davlatimiz rahbari sohani yanada rivojlantirish bo'yicha bir qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Jumladan:

⦿ Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida Global xavfsiz turizm kodexini ishlab chiqish;

⦿ Tashkilotning «Yashil» turizmni joriy etish bo'yicha eng yaxshi shahar nominatsiyasini ta'sis etish;

⦿ Tashkilot doirasida 2025-yilni «Butun jahon inkluyativ turizm yili» deb e'lon qilish va maxsus deklaratsiya qabul qilish;

⦿ Butunjahon turizm tashkiloti huzurida Sayyoqlik bo'yicha tarixiy shaharlar kengashini tuzish;

⦿ Butunjahon turizm tashkilotining Xalqaro turizm akademiyasida iqtidorli mutaxassislar uchun maxsus grantlarni taqdim etish;

⦿ Jahon yoshlar turizmi sammitini Toshkentda o'tkazish;

⦿ «Ipak yo'li» brendini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun Tashkilotning maxsus xalqaro mukofotini ta'sis etish;

⦿ Yetakchi ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar va eng yaxshi sayohat blogerlarini o'zida birlashtiradigan Global media kampusini tashkil etish.

⦿ Shuningdek, Sayyoqlik bo'yicha tarixiy shaharlar kengashining birinchi yig'ilishini qadimiy Buxoro shahrida, birinchi Global media kampusni mamlakatimizda o'tkazish tashabbusi bildirildi.

YANGI O'ZBEKISTON – YANGI ICHKI ISHLAR ORGANLARI

## MA'NAVIYAT – QUDRATLI KUCH



Ichki ishlar organlari hamda harbiy tuzilmalar boshliqlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rino-sarlari o'rtasida ilk bor o'tkazilgan «Eng yaxshi ma'naviy-ma'rifiy ishlar targ'ibotchisi» tanloving respublika bosqichi o'z nihoyasiga yetdi.

2

YUKSAK MUKOFOT SOHIBLARI

**MAS'ULIYAT****HISSINI TUYIB**

Mahmudjon Jo'rayev kollejdagi o'qishni tamomlab, Asaka shahridagi «Asaka don mahsulotlari» aksiyadorlik jamiyatida ishlay boshladi. So'ngra O'zbekiston Qurolli Kuchlari safida muddatli xizmatni o'tab qaytdi.

2008-yilda Mahmudjon Jo'rayev ichki ishlar organlari xizmatiga qabul qilindi. Dastlabki xizmat faoliyatini Asaka shahar IIB huzuridagi Qo'riqlash bo'linmasida safdor xodim sifatida boshladi. 2018-yildan u xizmatni yo'l harakati xavfsizligida davom ettirdi. Ayni paytda safdor M. Jo'rayev Andijon viloyati IIB Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi yo'l-patrul xizmatida inspektori lavozimida xizmat qilib kelmoqda.

Yo'l-patrul xizmati inspektorlarining xizmat faoliyati juda mashaaqqatlari. Qahraton qishda ham, jazirama yozda ham xizmatda bo'lib, harakat xavfsizligini ta'minlashga mas'ul bo'lishadi. Bu jarayonda

ular nafaqat harakat xavfsizligini ta'minlashadi, balki aholi orasida targ'ibot ishlarini olib borishib, yo'lda harakatlanish madaniyatini oshirishga ham hissa qo'shishadi.

– Ta'lim muassasalarida o'quvchilar, bog'cha tarbiyalanuvchilar bilan yo'l harakati qoidalari, unga rivoja qilmaslik oqibatlari haqida muntazam suhbatlar olib boramiz, – deydi YPX inspektori, safdor M. Jo'rayev. – Shunday paytlar bo'ladiki, o'smirlar katta yoshdagilarning qoidalarni buzayotganiga guvoh bo'lishadi, ularni siz noto'g'ri qilyapsiz, deb aybini ko'rsatib berishadi. Demak, biz olib borayotgan profilaktik ishlar samara bermoqda. Eng muhimi, sa'y-harakatlarimiz bolalar ishtirokidagi yo'l-transport hodisalari kamayishiga olib kelyapti.

Safdar Mahmudjon Jo'rayevning harakat xavfsizligini ta'minlash borasidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib e'tirof etildi. Ko'plab fidoyi xodimlar qatorida safdor

Mahmudjon Jo'rayev davlatimizning yuksak mukofotiga loyiq ko'rilib, Prezident farmoniga ko'ra «Sodiq xizmatlari uchun» medali bilan taqdirlandi.

– Yo'l-patrul xizmati inspektori harakat xavfsizligini ta'minlash bilan kifoyalanib qolmasligi kerak, u odamlar bilan muloqot qilishni, yo'llardagi muammoli vaziyatlarini hal etishni ham bilishi lozim. Harakat xavfsizligini ta'minlashga yo'llarda harakatlanish madaniyatini yuksaltirish, yo'l infratuzilmasi sifatini oshirish, yo'l harakatini intizomli tashkil etish orgali erishish mumkin, – deydi safdor M. Jo'rayev. – Negaki, ko'chalarda mashinalar yildan yilga ko'payib, harakatlanish yanada qiyin va xavfli bo'lib bormoqda. Bu esa bizlardan xizmatga yanada mas'uliyat bilan yondashishni, e'tiborli bo'lish va ogohlilikni talab etmoqda.

**Boris KLEYMAN,**  
o'z muxbirimiz.

*Andijon viloyati.*

**YANGI O'ZBEKISTON – YANGI ICHKI ISHLAR ORGANLARI**

**MA'NAVIYAT – QUDRATLI KUCH**

(Davomi. Boshlanishi 1-betda)

Unda Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash, Jazoni ijro etish departamentlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi IV, poytaxt va Toshkent viloyati IIB hamda viloyatlar II Bda o'tkazilgan hududiy bosqichlarda muvaffaqiyat qozongan 16 nafar osoyishtalik posboni g'oliblik uchun o'zaro bahslashdi.

Tanlovida ishtirokchilarning xizmat faoliyati, bilim darajasi, jismoniy va jangovar tayyorgarligi hamda yakka tartibdagi suhbat asosida nimalarga qodir ekanligi yana bir bor sinovdan o'tkazildi.

G'oliblar va sovrindorlar Ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan o'tkaziladigan bayram tadbirda tantanali ravishda taqdirlanadi.

O'z muxbirimiz.

**TAYINLANDI**

**polkovnik**

**KURBANBAYEVA**  
**Umida Tursinbayevna**

**Qoraqalpog'iston**  
**Respublikasi**  
**Bo'zatov tumani**  
**ichki ishlar bo'limi**  
**boshlig'i lavozimiga**



[www.postda.uz](http://www.postda.uz)



[t.me/postdaramsiy](https://t.me/postdaramsiy)



[www.facebook.com/postdauz](https://www.facebook.com/postdauz)



[www.instagram.com/postda\\_uz](https://www.instagram.com/postda_uz)

 HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

## «HOJATBAROR»

Odatda biror kishining hojatini chiqqargan kishilarni hojatbaror deyishadi. Hojatbarorlik ezgu fazilat, ammo bu ta'ma evaziga bo'lsa-chi?! Unda buni o'z manfaati yo'lida nafsi to'ydirish, deyish mumkin.

«O'zbekiston temir yo'llari» AJ Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasida ishlovchi S.Rahmonov (ism-sharifi o'zgartirildi) mo'may daromad orttirish niyatida «hojatbarorlik»ni o'ziga kasb qilib oladi. U bir necha shaxslarni tanishlari orqali temir yo'l korxonasiga ishga kiritishga va'da berib, pora ustida qo'lga tushadi va qonuniy javobgarlikka ham tortiladi. Bu ishidan xulosa chiqarmagan S.Rahmonov oradan bir yil o'tib bu hunarini yana bir bora takrorlaydi.

Bu gal qo'lga tushmayman, deb o'ylagan «hojatbaror»ning yana omadi yurishmaydi. Viloyat Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi xodimlari tomonidan uning bu harakati fosh qilindi. Shundan so'ng S.Rahmonovning ichiga g'ulg'ula tushadi. Bu gal jazo chorasi qattiq bo'lishini taxmin qilgan showvoz, yana shunday yo'l bilan vaziyatdan osongina qutulib ketish choralarini izlay boshlaydi.

Nihoyat, viloyat Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi boshlig'i, podpolkovnik A.Mirzayevga murojaat qilishni – ishni to'g'ridan-to'g'ri rahbarning o'zi bilan hal qilib qo'yishni reja qiladi. A.Mirzayevga esa xodimlari ish yurituvda bo'lgan jinoyat ishini sudga chiqarmasdan, harakatdan tugatib berishni so'rady. Buning evaziga podpolkovnik A.Mirzayevga 1500 AQSH dollarini miqdorida pora taklif qiladi...



Tezkor tadbir davomida S.Rahmonov 1500 AQSH dollarini miqdorida pulni A.Mirzayevning xizmat xonasida bergen vaqtida ushlandi.

O'z vazifasini suiiste'mol qilib, oxir-oqibat yuzi qoralikdan boshqa narsaga erisholmagan kimsalarga ko'p bor duch kelamiz. Shunga qaramay, bundan to'g'ri xulosa chiqarish o'rniga, ayrim fuqarolarning befarqligi, hatto o'z hayotini-da o'yamasligi, bor-yo'q dardi mo'may daromad qilish bo'lib qolgani achinarlidir. O'z aybini hamon ta'ma evaziga yopadiganlarning esa bunday xatti-harakatlari noto'g'ri ekani yuqoridagi holatda yana bir bor isbotini topdi. Zora, boshqalar bu yanglish fikrni xayollaridan chiqarib tashlashsa va shunday xatoni takrorlashdan chekinishsa.

Feruza RAHMONQULOVA,  
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

## HAYDOVCHINING «TAKLIFI» O'TMADI



*Suratda: mayor Odiljon Soipov (chapda) hamda kapitan Temur Shodiyev.*

Toshkent shahar IIBB xodimlari huquqbazarlik va jinoyatchilikka qarshi kurashtish, yo'l-transport hodislarining oldini olish maqsadida Uchtepa tumani hududida o'tkazilayotgan «Hamkor» tungi profilaktik tadbirga jalb qilingan holda xizmat olib borishayotgan edi. Mahalla ichidan chiqqan bir avtoulov haydovchisi ichki ishlar organlari xodimlarini ko'rib, mashinasini orqaga burdi. Buni ko'rib turgan shahar IIBB YHXB YPX brigadasi 4-batalyon 3-safarbarlik guruhi katta inspektori, kapitan Temur Shodiyev va 3-safarbarlik guruhi inspektori, katta serjant Sherli Jo'rayev avtomashinani to'xtatib, haydovchidan hujjalarni taqdim etishni so'radi.

Hujjalarni tekshirish jarayonida haydovchi N.Sh.ning spirtli ichimlik iste'mol qilganligi ma'lum bo'ldi. Juda chorasiz qolgan

haydovchi vaziyatdan chiqib ketish uchun osoyishtalik posbonlariga pora taklif qildi. Xodimlar bu xatti-harakati qonunga xilof ekanligini tushuntirishdi, lekin bu unga kor qilmadi. Shundan so'ng xodimlar 4-batalyon komandirining tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinnbosari, mayor Odiljon Soipovga bu haqida xabar berishdi. Huquqbazar haydovchi birozdan keyin voqeа joyiga yetib kelgan mayorni ham avrashga tushdi. Qilmishini bosdi-bosdi qilib berish evaziga 7 million 100 ming pul bermoqchiligini aytди.

Tegishli idoralar hamkorligida o'tkazilgan maxsus tadbirda haydovchi N.Sh. YPX inspektorlariga pora tariqasida pul berayotgan vaqtida qo'lga olindi.

**Sarvar SOBIROV,**  
o'z muxbirimiz.

*Toshkent shahri.*



*Xulqlarning eng afzali, insonlar uchun eng keraklisi nazari ibratdur. Inson ibrat nazari ila boqub dunyo kitobindan o'z qadr-hissasini bilub olmaki lozimdur.*

**Abdulla AVLONIY.**

 Постановление и его исполнение

## ТУРНИР ПО КИБЕРСПОРТУ

В Нукусе прошли соревнования по киберспорту на кубок министра внутренних дел Республики Каракалпакстан. В турнире приняли участие сотрудники отраслевых служб, городских и районных отделов внутренних дел.



Соревнования были организованы в соответствии с постановлением Президента «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию и широкой популяризации видов киберспорта» от 16 ноября 2022 года. Их проведение является частью мероприятий, направленных на создание экосистемы по развитию и популяризации киберспорта среди сотрудников органов внутренних дел, подготовку квалифицированных кадров по информационным технологиям и IT-индустрии, привлечению молодежи в данную перспективную сферу.

В турнире, прошедшем в бескompromissной борьбе,

приняли участие 24 команды. По итогам соревнований третье место присуждено команде ОВД Тахиаташского района, второе место заняла команда Управления координации деятельности органов внутренних дел города Нукуса. Обладателем кубка министра стал коллектив Управления общественной безопасности СОБ Министерства внутренних дел Республики Каракалпакстан.

Победителям в торжественной обстановке вручены медали от министерства и денежные премии.

Саламат  
ДАУЛЕТМУРАТОВ,  
майор.



 По стопам отца

## С ЛЮБОВЬЮ К СЕМЬЕ, ОТВЕТСТВЕННО К СЛУЖБЕ

...Преждевременный уход капитана Ермакамида Бурановича Абдувалитова из жизни стал шоком для всех, кто его знал.

Будучи заместителем командира отряда отдельного батальона управления «Охрана» ГУВД города Ташкента, ему предстояло объехать все вверенные объекты, чтобы проконтролировать дежурство. Е. Абдувалитов проверил очередной объект, дал указания и направлялся к следующему. Мужчина подошел к служебной машине. Не успев в нее сесть был сбит автомобилем, которым управлял шестнадцатилетний подросток.

К сожалению, 25 мая 2016 года Е. Абдувалитов ушел из жизни. У многих людей сохранилась добная память о нем. Ответственный сотрудник посмертно был удостоен медали «Жасорат».

По словам супруги, Е. Абдувалитову удавалось достойно контролировать не только служебный поря-

док, но и вести семейные дела. Дочери, Разие, на тот момент было 17 лет, сыну, Нариману, – 15. Все вокруг хорошо отзывались о семье.

– Стоило моему супругу переступить порог дома, первым его вопросом был: «Как дети?». Он часто приходил поздно домой, когда дочь и сын уже спали. Обязательно заглядывал к ним в комнату и долго смотрел на них. Бывало такое, что дети не спали, ждали его, – вспоминает Д. Аскарова.

Отец повлиял на профессиональный выбор детей. Отрадно, что они пошли по его стопам, окончили Академию МВД Республики Узбекистан. В настоящее время старший лейтенант Разия Буранова учится в базовой докторантуре на факультете послевузовского образования, до этого преподавала на кафедрах



криминологии и уголовного права. Лейтенант Нариман Буранов, окончив Академию МВД в этом году, служит на должности дознавателя СО при УКД ОВД Янгихётского района.

– Отец заботился о нас, следил за учебой и к спорту приобщал, – говорит лейтенант Н. Буранов. – Надев погоны, буду стремиться с честью пройти свой служебный путь.

– Мой отец прожил пусть и короткую, но очень достойную жизнь. Жил просто – по совести. Папа был не только интеллектуалом, но и мудрым человеком, всегда давал правильные ориентиры. Честность, нравственность, трудолюбие, семья, дети, работа, ответственность, помощь, размышления – этими словами можно описать жизнь отца, – делится Разия Буранова. – Я горжусь, что мы пошли по его стопам.

Азиза БОХОДИРОВА,  
капитан.

YOSHLAR – YANGI O'ZBEKISTON BUNYODKORI

## MA'MURJONNING EZGU NIYATI

Katta serjant Ma'murjon Rashidov shu yil avgust oyida Samarqand shahrining «Yulduz» mahallasiga profilaktika inspektori etib tayinlandi. To'g'ri, unda hali tajriba yetarli emas. Ammo kirishimliliqi, harakatchanligi tufayli mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli va yoshlardan yetakchisi bilan tezda til topishib ketdi. Aytish mumkinki, o'tgan qisqa davr ichida aholining tinchlik-osoyishtaligini ta'minlashga baholi qudrat hissa qo'shib ulgurdi.



Uning xizmat hududida 760 nafardan ortiq oila istiqomat qiladi. O'tgan davr ichida profilaktika inspektori har bir xonadonda bo'lib, turmush sharoitini o'rgandi. «Mahalla beshligi» birgalikda mavjud muammolarni hal etish choralarini ko'rishi yapti. Jumladan, ishsizlarga kredit ajratildi, tikuv mashinalari olib berildi, moddiy yordam ko'rsatildi.

Har kuni mahalla idorasiga 3-4 nafar fuqaro murojaat bilan keladi. Har qaysining o'ziga yarasha tashvishi bor. Masalan, yaqinda 35 yoshli ayolga himoya orderi berishga to'g'ri keldi. Hozirda uning turmush o'rtog'i bilan o'rta-laridagi nizo barham topdi.

Yosh inspektor ish vaqtining qat'iy me'yorga

solinmaganiga ham, tungi chaqiruvlarga ham, kerak bo'lsa dam olish va bayram kunlari ishslashga ham o'rganib, ko'nikib ketdi. Faqat oilaviy janjallar payti ba'zan qaysi tarafning yonini olishni bilmay, yosh bolalarning jovidirashini ko'rib qynaladi. O'zini go'yoki ikki o't orasida qolganday his qiladi. Shunday kezleri mahalla faollari, nuroni otaxonlaru kayvoni onaxonlarga suyanadi.

– Niyatim – aholining ishonchini qozonish. Yana ularning muammolari imkon qadar mahallaning o'zida hal etilishini istayman, hamisha shunga intilaman, – deydi qahramonimiz.

**Zamira BOLTAYEVA,**  
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

SHOGIRDLAR USTOZLAR HAQIDA

## SO'ZI BILAN ISHI BIR

**Yaqinda ustozim, iste'fodagi podpolkovnik Sayfull Satayev «Ichki ishlar organlarining faxriy xodimi» ko'krak nishoni bilan taqdirlandilar. Xushxabarni eshitib, ustozni qutlash maqsadida xonadonlari tomon yo'l oldim.**

Xuddi kechagidek esimda. Bundan 30 yilcha oldin mahalliy gazetalarda Navoiy viloyati ichki ishlar idoralaridagi mavjud bo'sh lavozimlarga tanlov e'lon qilingan edi. Men ham viloyat IIB SHTBIXga hujjatlarimni topshirdim. Viloyat IIB Jinoyatchilikning oldini olish bo'limi boshlig'ining o'rnbosari S. Satayevning oldiga olib kirishdi.

U kishi men bilan bir soatcha suhbatlashdi. Javoblarimdan qoniqqach, navbat bilan Navoiy tumani (hozirgi Karmana tumani) IIB, Navoiy shahar IIB va boshqarmaning o'zida ish o'rganishimni tayinladi. Ish o'rganish jarayonida IIB xodimlari bilan tungi vaqtleri patrullikka chiqdim, fuqarolarining murojaatlarini o'rganishga yordamlashdim, hisobda turgan shaxslarning uylariga bordik, o'quv muassasalarida targ'ibot tadbirlari o'tkazdik.

Oradan bir oy o'tib, faoliyatni Navoiy shahar IIB 3-militsiya tayanch punktida uchastka nozirligidan boshladim. Bir kuni S. Satayev kelib ishimni o'rgandi. Profilaktik ishlarni olib borish borasidagi yutuqlarimni e'tirof etish barbarida, fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqishimda

kamchiliklarga yo'l qo'yganligimni ham tushuntirdi. Keyinchalik ham ustozim vaqt-vaqt bilan men dan xabar olib, kamchiliklarimni ko'rsatib, qimmatli maslahatlar berib turdilar.



**Suratda:** Otabek Shamshiyev ustozni Sayfullo Satayev bilan.

Oradan ma'lum vaqt o'tgach, nihoyat bir kuni «Xizmatda ancha pishib qolibsani. Endi boshqarmada ishlasang bo'la-di. Viloyat IIB boshlig'i nomi-

ga seni lavozimga tayinlash bo'yicha taqdimnomasi kiritaman», dedilar. Shu tariqa viloyat IIB Jinoyatchilikning oldini olish bo'limida ish boshladim. S. Satayev men qatori ko'plab yosh xodimlarga bilmaganlarini o'rgatar, tajribalarini oshib borishiga yordamlashar edi.

2001-yilda podpolkovnik S. Satayev yangi tashkil etilgan Huquqbazarliklarning oldini olish

harakat qillardim. Har zamon Sayfullo aka hazillashib: «Shunday ishlab tursang, mening joyimni egallaysan», derdilar.

Oradan yillar o'tdi, S. Satayev izzat-ikrom bilan pensiyaga kuzatildi. Men ustozning saboqlari, duolari sharofati bilan shu boshqarmada boshliq o'rnbosari, keyinroq esa rahbar bo'lib ishладим. Sayfullo aka nafaqat menga, balki juda ko'p shogirdlariga o'z bilimi, tajribasini o'rgatgan sabr-bar-doshli, g'amxo'r va talabchan murabbiy edilar.

Ustoz hozir ham o'zları yashaydigan mahallaning turli tadbirdari, obodonlashtirish ishlariga bosh-qosh bo'lib turibdilar. Ichki ishlar organlaridagi yosh xodimlar bilan bo'ladigan uchrashuvlarga va boshqa tadbirdarga u kishini tez-tez taklif qilishadi. Mana, olti yillardiki, IIV Navoiy akademik litsseyida o'quvchilarga saboq berib kelmoqdalar.

Sayfullo aka turmush o'rtoqlari Hadiyaxon opa bilan 4 nafar farzandni el koriga yaratdigan insonlar qilib tarbiyaladilar. Hozirgi kunda 10 nafar nevaraning sevimli bobosi. Hammaga ham ana shunday qo'sha qarish, baxtli hayot kechirish nasib etsin.

**Otabek SHAMSIYEV,**  
iste'fodagi podpolkovnik.  
Navoiy viloyati.

Подготовка кадров

## ЛИЦЕИСТАМ СКУЧАТЬ НЕ ПРИХОДИТСЯ

В отличие от обычного образовательного учреждения, в лицее МВД учащиеся находятся 24 часа в сутки. Распорядок дня здесь расписан детально. Ранний подъем, зарядка, завтрак, проверка личного состава, учеба, обед, факультативные занятия, самоподготовка. Словом, без дела никто не сидит.



Сарвиноз Алимжонова удостоена нагрудного знака МВД «Үқишдаги муваффақиятлари учун».



Учащиеся 2-го курса Фарангиз Комилова и Комилахон Ризаева – победительницы олимпиады по русскому языку.



Строевые занятия с учащимися 2-го курса.



Преподаватель Фарходбек Ахмедов проводит занятия по Правилам дорожного движения с учащимися 2-го курса Муслимом Рустамовым, Элмуороджоном Ашуровым и Шамсиддином Собировым.

Даже после уроков лицейским никогда скучать. Одни занимаются спортом, другие развивают логическое мышление с помощью шахмат и шашек, третьи – заняты в кружках по интересам.

Олимпиады по всем предметам, изучаемым в лицее, вносят определенную лепту в повышение уровня знаний учащихся, стимулируют их стремиться вперед, больше узнавать, готовиться к поступлению в Академию МВД. Итоги олимпиады, недавно проведенной в Ан-

дижанском академическом лицее МВД, показали, как много молодых парней и девушек прилагают усилия для того, чтобы быть первыми. Хаётилла Тулкунов, Озодбек Содиков, Диёрбек Давронов, Азамжон Бурхониддинов, Бобурбек Хакимов, Жаҳонгир Бекмирзаев, Гулижахон Истроилова, Сардор Хурбоев, Сарвиноз Алимжонова, Фазлиддин Тохиров стали ее победителями.

В День открытых дверей в лицей приглашаются старшеклассники школ и их родители. Они встречаются с лицейскими, руководством и преподавательским составом учебного заведения, узнают о порядке набора на учебу в образовательное учреждение МВД, об организации здесь учебной и воспитательной работы.

**Борис КЛЕЙМАН,**  
соб. корр.


Андижанская область.

Новшества

## БЫТЬ БЛИЖЕ К ЛЮДЯМ

В эти дни в людных местах махаллей Джизакской области распространяются информационно-пропагандистские флаеры, на которых имеются QR-коды с данными инспекторов профилактики органов внутренних дел.

Пройдя по ссылке QR-кода можно получить доступ к информации об инспекторе профилактики, номере его мобильного телефона, закрепленной за ним территории, органе правопорядка, расположенному в зоне его ответственности, дислокации пункта правопорядка. Также приведены телефоны центра доверия, созданного



при службе профилактики правонарушений Департамента общественной безопасности МВД «1259» и «1286».

Это делает открытой и доступной деятельность инспекторов профилактики для граждан. В частности, лицо, не удовлетворенное результатами рассмотрения своего обращения, или считающее, что его права и интересы нарушены, может заявить об этом напрямую в вышестоящий орган.

Новшество будет способствовать предупреждению правонарушений на местах, раскрытию преступлений, а также повысит информированность граждан.

**Уткиржон НИЗОМОВ,**  
капитан.

Джизакская область.



[www.postda.uz](http://www.postda.uz)



[t.me/postdarasmiy](https://t.me/postdarasmiy)



[www.facebook.com/postdauz](https://www.facebook.com/postdauz)



[www.instagram.com/postda\\_uz](https://www.instagram.com/postda_uz)

 Yuksak mukofot sohiblari

## MEHNAT QILGAN ELDA AZIZ

**Mustaqilligimizning o'ttiz ikki yilligi bayrami arafasida Prezidentimizning farmoniga muvofiq yuksak mukofotlar bilan taqdirlangan bir guruh ichki ishlar organlari xodimlari orasida IIV huzuridagi JIED Oltinchi mintaqaviy hudud 17-son jazoni ijro etish koloniysi boshlig'i, podpolkovnik G'olib Turdiyev ham bor. Uning ko'ksini «Sodiq xizmatlari uchun» medali bezab turibdi.**

Qahramonimiz tizimda 21 yildan beri xizmat qiladi. Shaxsiy tarkib orasida obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan rahbarlardan.

Egallab turgan lavozimida mahkumlarni ish bilan ta'minlash, kasb-hunarga o'rnatishga alohida e'tibor qaratdi. Garchi koloniyadagi korxonada g'isht ishlab chiqarish, tikuvchilik, mebelsozlik, temirga ishlov berish, ohak va gips ishlab chiqarish sexlari faoliyat ko'rsatib turgan bo'lsa-da, ammo ish o'rinnari yetarlicha emasdi. Shuni nazarga olgan koloniya boshlig'i qo'shimcha ravishda keramzit, hojatxona qog'ozni ishlab chiqarish va bo'z to'qish sexlarini ishga tushirdi. Yana zamonaviy texnika va zaruriy xom-ashyo yetishmovchiligi tufayli deyarli faoliyat ko'rsatmayotgan tosh kesish sexini mahalliy tadbirkorga ijaraga



berdi. Buning natijasida qo'shimcha 795 nafar mahkumning bandligi ta'minlandi.

Shuningdek, koloniyada jazo muddatini o'tayotgan mahkumlar-

ga turli buzg'unchi g'oyalarning zararli jihatlarini tushuntirish maqsadida ular o'rtasida O'zbekiston Respublikasi musulmonlar idorasasi, viloyat hokimiyyati, boshqa huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlari bilan hamkorlikda tez-tez davra suhbatlarini tashkillashtirib kelmoqda. Qolaversa, IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli 7536-harbiy qism 3-batalyoni harbiy nazoratchilar bilan birgalikda tegishli tadbirlar o'tkazilmoqda. Bularning natijasi yomon bo'lmayapti.

Shaxsiy tarkibning bilim saviyasini, ma'naviyatini, kasbiy mahoratini oshirish maqsadida o'quv mashg'ulotlari yuqori saviyada o'tkazilyapti. Ma'rifat xonasi qaytdan ta'mirlanib, zamonaviy talablar asosida jihozlandi. Bundan tashqari, xodimlarning intellektual salohiyatini, kitobxonlik madaniyatini kuchayti-

rish uchun kutubxona tashkil qilindi. Ushbu ziyo maskanining kitob fondi ko'payib bormoqda.

Lavhamiz qahramoni boshchiligidagi amalga oshirilgan xayrla ishlar ro'y-xatini yana davom ettirish mumkin. U hayotda qanday muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsa, barchasi tinimsiz izlanishining, zahmatli mehnatining, yuksak axloq-odobining mevasidir. «Mehnat qilgan elda aziz» deb bejiz aytishmaydi. Podpolkovnik G'olib Turdiyevning el-yurt oldidagi ko'p yillik halol xizmati, fidoyiligi, burchiga sadoqati munosib taqdirlandi.

– Davlatimizning bu mukofotini nafaqat menga, balki barcha jammoadoshlarim xizmatiga berilgan yuqori baho deb bilaman, – deydi qahramonimiz g'ururlanib. – Chunki qanday yutuqqa erishmayin, barchasida men bilan yonma-yon xizmat qilayotgan hamkasblarning mehnati, qolaversa, ustozim, istefodagi polkovnik Shavqiddin Idievning hissasi bor.

**Mirzoqul AHADOV,  
o'z muxbirimiz.**

Buxoro viloyati.

 AYOL VA JAMIYAT

## MUAMMO HAL BO'LSA, KO'NGIL XOTIRJAM

Bektemir tumani IIOFMB 1-IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor, kapitan Shahlo Saparovning xizmat hududiga – Husayn Boyqaro, «Bektemir», «Ustozlar», «Zabardast» va «Nurli yo'l» mahallalari kiradi. Ushbu beshta hududdagi 10 ming nafardan oshiq xotin-qizlarning dardu tashvishi va muammolarini hal etish, tashabbuslari hamda izlanishlariga ko'makchi bo'lish inspektoring kundalik vazifasi.

«Ustozlar» MFYda istiqomat qiluvchi Asila (ismlar o'zgartirildi) turmushga chiqqaniga 8 yil bo'ldi. Ikki nafar farzandi bor. U shuncha vaqt turmush o'rtog'ining ruhiy zo'ravonligi, tazyiqlari ostida yashadi. Urf-odatlarimiz hamda oilasining obro'sini o'ylab hech qayerga murojaat qilmadi. Biroq pichoq borib suyakka qadaldi. Bir kuni turmush o'rtog'i M.J. kechasi soat 03:30 lar da kelib, uni har xil uyatli so'zlar bilan haqorat qildi. O'rtada janjal ko'tarilganligi oqibatida bolalar qo'rqib ketgan. Bu holatlarga chiday olmagan ayol 1-sonli IIBya murojaat qilgan.

Katta inspektor, kapitan Shahlo Saparova mahalla faollari bilan hamkorlikda ushbu oilada profilaktik suhabat olib bordi va jabrdiayda ayolga himoya or-



deri rasmiylashtirib berildi. Shundan so'ng oila qat'iy nazoratga olinishi natijasida nizo bartaraf etilib, eru xotinni yarashtirishga erishildi.

Oilaviy nizolar va ajirlarning yuzaga kelishining barvaqt oldini olish yuzasidan bir qancha ishlar amalga oshirilmoxda. O'tgan vaqt mobaynida 20 nafar xotin-qizning band-

ligi ta'minlandi. «Zabardast» mahallasida yashovchi N. Nabieva ishsizligi sabab murojaat qilgandi. Uning oilaviy sharoiti o'rganilib, mahalla bilan hamkorlikda xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotiga oshpaz yordamchiligidagi joylashtirildi.

14 nafar xotin-qiz esa tumandagi Monomarkazda o'qitildi. Xusayn Boyqa-

ro mahallasida istiqomat qiluvchi G. Sinitcina ham ishsiz edi. U kompyuter tizimlari texnigi mutaxassisligi bo'yicha o'qilib, ishga joylashtirildi.

Lavhamiz qahramoni hamkasblari hamda ustozi – tuman IIOFMB HPB XQMB katta inspektor, podpolkovnik Dilrabo Shokirova bilan ham-

korlikda sa'y-harakatlarini davom ettirmoqda. Uning yelib-yugurishlari natijasida hududdagi oilalarning tinchligi va xotirjamligi ta'minlanmoqda. Muammosi hal bo'layotgan xotin-qizlar bundan mamnun.

**Sarvar SOBIROV,  
o'z muxbirimiz.  
Toshkent shahri.**



## MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARSI

Bugun dunyoda hukm surayotgan murakkab va tahlilik sharoitda mamlakatimiz xavfsizligi va hududiy yaxlitligini, jamiyatimizda tinchlik va hamjihatlikni ta'minlash qanchalik muhim vazifa ekanligini barchamiz ko'rib, bilib turibmiz. Bunda ichki ishlar organlari xodimlari har doim davlatimiz va jamiyatimizning mustahkam tayanchi bo'lib xizmat olib borishmoqda.

# O'SOYISHTALIK POSBONLARI – ZAMONAMIZ QAHRAMONLARI

(25-oktabr – Ichki ishlar organlari xodimlari kuni)

O'zbekiston Respublikasi ning jamoat xavfsizligi konsepsiysi hamda 2022–2025-yillarda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi asosida fuqarolar huquqlarini himoya qilish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishga

ko'plab huquqbazarliklarga barham berib, turli yo'nalishdagi muammoli masalalarning hal etilishi da alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, hududlarda xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektorlar ko'p sonli opa-singillari mizning maslahatchisi,



qaratilgan zamonaviy ish uslublari amaliyotga ttabiq etilmoqda. Hududlarda jinoyatchilikning oldini olish, uning sabablarini bartaraf etish maqsadida huquqbazarliklarning «mahallabay» va «xonadonbay» muhokamalarini keng jamoatchilik ishtirokida o'tkazilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi har bir mahallada xizmat olib borayotgan profilaktika inspektorlari hudud fuqarolarining tekshiruvchi yoki nazoratchisi emas, balki barcha hayotiy masalalarda aholi ga ko'makchi, chinakam yelkadosh, yonma-yon turadigan yaqin insonga aylanib ulgurdi. Shuningdek, profilaktika inspektorining mahallada hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi va xotin-qizlar faoliyati bilan hamkorlikdagi faoliyati

himoyachisi va ko'makdoshi sifatida qator amaliy ishlarni olib borishmoqda.

Probatsiya xizmati xodimlari ham tegishli tashkilot va idoralar bilan hamkorlikda mahkumlarni zarur kasb-hunarlaraga o'qitish, ishga joy-

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan tizimni tubdan takomillashtirish, ichki ishlar organlarini aholiga o'z vaqtida, sifatli yordam ko'rsatadigan, «Xalq manfaatlariga xizmat qilishni o'z xizmat burchi deb biladigan ijtimoiy yo'naltirilgan professional tuzilmaga aylantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

2016-yilda mustaqil O'zbekistonning 25 yillik tarixida ilk bor «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi qonun qabul qilinib, unda ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, faoliyatining yo'nalish va tamoyillari belgilab berildi.

lashtirish, xususiy tadbirkorlikka jalb etish, eng asosiysi, ish beruvchilar tomonidan ularning huquq va manfaatlari ta'minlanishida yaqindan yordam ko'rsatishmoqda.

2017-yil 10-aprelda qabul qilingan «Ichki ishlar organlari samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident farmoni ichki ishlar organlari tizimida tub islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi.

**Agar davlat tayanadigan asosiy ustun qonun bo'lsa, uning kuchini amalda namoyon etadigan eng samarali tizim bu – ichki ishlar sohasi, desak, ayni haqiqat bo'ladi.**

Shavkat MIRZIYOYEV

o'z oromi, tinch, huzur-halovati, kerak bo'lsa jonidan kechib, Vatanimiz, xalqimiz tinchligi va o'soyishtaligini saqlash va himoya qilishdek ulug' vazifalariga hamisha sobit. Ular diyorimizda hukm surayotgan tinchlik-osoyishtalik posboni, kerak bo'lsa qalqoni bo'lib xalq ishonchi va roziligi yo'lida, kecha-yu kunduz sergak va hushyor xizmat qilishmoqda. Sohadagi yangilanish, o'zgarishlar bilan hamnafas, o'z burchi va qasamyodi-

Davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi va o'tish davrida ichki ishlar organlarining moddiy-teknik ahvolini yaxshilash, malakali milliy kadrlar tayyorlash tizimini joriy etishga qaratilgan dastlabki o'zgarishlar amalga oshirildi.

Jumladan, 1991-yil 25-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 270-sonli qarori asosida O'zbekiston SSR II – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga aylantirildi. Qaror bilan vazirlilik Nizomi va strukturasi tasdiqlandi. 2006-yil 6-dekabrda qabul qilingan qonunga muvofiq, 25-oktabr – mamlakatimizda Ichki ishlar organlari xodimlari kuni deb belgilandi.



ish, transportda xavfsizlikni ta'minlash, ekspert-kriminalistika, ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash, moliya, tibbiyot singari qator sohaviy xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar, vazirlik tizimidagi harbiy xizmatchilar hamisha

ga sodiq, vatanparvar va xalqparvar fidoyi xodimlar namunali xizmati bilan Yangi O'zbekistonda «Inson qadri uchun» degan ezgu tamoyil asosida olib borayotgan islohotlar rivojiga munosib hissa qo'shayotirlar. Zotan, yuragi shu yurt taqdiri, uning buguni, ertasi, tashvishi bilan urib turgan har bir inson uchun Vatan tinchligi, o'soyishtaligi hamma narsadan ustundir. Uni ko'z qora-chig'idek asrab-avaylash, qadrlash esa muqaddas burch, sharafdir. Ichki ishlar organlari xodimlari ana shu ulug' maqsad yo'lida bel bog'lab xizmat qilayotgan, hamisha xalq bilan hamnafas yashayotgan oramizdag'i qahramonlardir.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,  
o'z muxbirimiz.



 Yoshlar — kelajak bunyodkori

— O'shanda 10 yoshlar-da edim. Otam Bahodir Abdurahmonov ichki ishlar organlarining jinoyat qidiruv xizmatida faoliyat ko'rsatar, vaqtining asosiy qismi xizmatda o'tardi, — deydi kichik serjant Avazxon Abduhamidov. — Bizni istirohat bog'iga olib boring, deya xarxasha qilaverganimizdan keyin bir kuni otam vaqt ajratib, uyg'a vaqtliroq keldi. Otam onam, akam va meni poytaxtdagi istirohat bog'iga olib bordi. Aylandik, akam ikkimiz attraksionlarda uchdkid. Endi bir joyda o'tirib muzqaymoq yeymiz deb turganimizda otam «sizlar muzqaymoq yeb turninglar, men hozir kelaman» deya bizdan uzoqlashdi. Keyin birdan g'alag'ovur bo'lib qoldi. Keyin bilsak otam bog'da qidiruvda-gi jinoyatchiga o'xhash kimsani ko'rib qolib, uning orqasidan tushgan, odamlar kamroq joyda uni qo'lga olishga muvaffaq bo'igan ekan.

Xizmat vaqt bo'limasada qaysi kasbda faoliyat ko'rsatayotganini unutmagan, jamoat tartibini saqlashni, jinoyatchilarni qo'lga olishni doim birinchi o'runga qo'yadigan otasining bu harakati yosh Avazga boshqacha ta'sir qildi. Chin qalbdan qilingan tilak, niyat amalga oshar ekan. Vaqt o'tgan sayin ko'nglidagi orzu maqsadga aylanib, shu yo'lda tinim bilmay izlandi.

 Qorovul qo'shinlarida

## «OTAMGA HAVAS QILGANMAN»

**Hayotda kimdir kimgadir havas qiladi. Ko'nglida men ham o'shanday bo'lsam, yuqori marralarni egallasam, degan orzu bo'ladı. II V Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash qo'shinlariga qarashli 7257-sonli harbiy qismida xizmat qilib kelayotgan kichik serjant Avazxon Abduhamidov ham padari buzrukvoriga havas qildi. Kelajakda albatta ichki ishlar organlarida xizmat qilaman, deya ulg'aydi.**



Taekvondo bilan shug'ullanib, o'quvchilik kezlarini ko'plab yutuqlarga erishdi. Taekvondoning ITF yo'naliishida O'zbekiston chempioni ham bo'ldi.

U kollejni tugatganidan keyin harbiy qismida yigitlik burchini o'tadi. Xizmat-

dan qaytib kelib, DXXga qarashli harbiy qismning Toshkent Metropoliteni ni qo'riqlash xizmatida ish boshladidi. 2019-yildan buyon esa II V Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash qo'shinlariga qarashli 7257-sonli harbiy qism-

da xizmat qilib kelmoqda. Dastlab o'qchi lavozimida xizmat qilgan bo'lsa, ayni paytda nazorat o'tish joylarini qo'riqlashi guruhida nazortachi lavozimida faoliyat ko'rsatmoqda.

Xizmatda o'z o'rniiga ega lavhamiz qahramoni ha-

yotda bir joyda qotib qolishni istamaydi. Hali ham o'qib-o'rganishdan, ilm olishdan to'xtamagan Avaz Abduhamidov hozirda oliy ta'lim muassasasida sirtdan tahsil olmoqda.

— Kitob o'qishni, baliq ovlashni yoqtiraman, — deydi kichik serjant Avazxon Abduhamidov. — Kecha Akrom Malikning «Halqa» asarini o'qib tugatdim. Eng yaxshi ko'rgan asarlarim — Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» va «Mehrobdan chayon» kitoblari. Tohir Malikning asarları esa dunyoqarashimni o'zgartirishda katta turtki bo'lgan.

Xizmatdan bo'sh vaqtida ko'proq oilasi, farzandlari bilan bo'lishiga intiladigan Avazxon Abduhamidov turmush o'rtog'i Gavharxon bilan hamjihatlikda farzandlari Muhammadnur va Abdulhamidxonni tarbiyalab kelishmoqda.

**Foziljon**

**MAMASHARIPOV,**  
**o'z muxbirimiz.**

**Suratda:** kichik serjant A. Abduhamidov (chapdan uchinchi) mashg'ulot paytida.

## MAQSADGA AYLANGAN HAYRAT

**Qahramon o'zidan 15 yosh katta akasi Shahobiddin Mardonov xizmat qilgan harbiy qismga tez-tez borib, o'tkaziladigan saf ko'rige tantanali marshlarni o'zgacha havas va hayrat bilan kuzatardi. Uyiga kelganida esa askarlarning xatti-harakatlarini o'zicha takrorlardi. Maktabni tamomlash arafasida professional harbiy bo'lishga azmu qaror qildi.**



II V Toshkent oliy harbiy texnika bilim yurtiga o'qishga kirib uni muvaffaqiyatlari yakunlaydi. Hozirda II V Qorovul qo'shinlariga qarashli 7532-harbiy qism (Navoiy shahri) komandirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinosari lavozimida xizmat qilayotgan podpolkovnik Qahramon Mardonov shaxsiy tarkibning ma'naviyatini va jangovar shayligini oshirish, jamoada harbiy intizomni mustahkamlash borasida samarali ishlarni amalga oshirmoqda. Sport musobaqalari, kitobxonlik madaniyatini kuchaytirishga qaratilgan turli tadbirlar tashkil etilmoqda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj va oila a'zolarining sog'lig'ida muammosi bo'lgan harbiy xizmatchilar hamda faxriylarning holidan xabar olinib, ularga zarur yordam berilmoqda.

Yaqinda serjant Akbarali Boboyevning yashash sharoitini o'rganish maqsadida uning xonardoniga bordi. Farzandining nogironligi bois, tibbiy ko'rik tashkil etilib, unga ijtimoiy-moddiy ko'mak berildi. Bundan tashqari, Qahramon Mardonovning tashabbusi bilan faxriylar ishtirokida ko'plab uchrashuv va davra suhbatlari tashkil etilib, yoshlar uchun qimmatli tavsiya va maslahatlar berib kelinmoqda.

Podpolkovnik Q. Mardonov xizmatdagi kasbiy mahorati, salohiyati va o'ziga xos ish uslubi tufayli harbiy qism shaxsiy tarkibi o'rtasida hurmat qozongan.

**Mahliyo XOLOVA,**  
**o'z muxbirimiz.**

Navoiy viloyati.

21-OKTABR – O'ZBEK TILI BAYRAMI KUNI

# TIL – XALQ RUHI, MA'NAVIYATIMIZ KO'ZGUSI

Bugungi kunda biz yangi O'zbekistonni, yangi Renessans poydevorini barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga erishishda, hech shubhasiz, ona tilimizning hayotbaxsh qudratiga tayanamiz. Chunki, necha asrlar osha ajodolarimizdan bizga bezavol o'tib kelayotgan ona tilimizning ravnagi va istiqboli haqida qayg'urish – bu millatning o'zligini anglashi, uning ma'naviy kamolotini yuksaltirish uchun kurash demakdir. Davlat tilining obro'-e'tibori – butun xalq, butun jamiyatning obro'-e'tiboridir.

Shavkat MIRZIYOYEV

Bundan 34 yil muqaddam o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan edi. Bu o'z davrida tom ma'noda olamshumul voqeal bo'lgan edi. Chunki, Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo singari buyuk siyomolarni yetishtirgan xalq tili yo'qolish arafasiga kelib qolgan edi. Mustaqillikka ilk qadamlar tashlanayotgan davrdayoq O'zbek tiliga davlat tili maqomi berish masalasi kun tartibiga qo'yilib, bu ish amalga oshirilgandi. Bu mamlakatimiz, yurtdoshlarimiz hayotidagi unutilmas, tarixiy voqeaga aylangandi.

Til har bir millat madaniyatining o'zagidir. Shu sababli ham tilning saqlanishi xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydi. Til xalqni birlashtiradi, tarbiyalaydi, o'qitadi, ursf-odat, an'analarini saqlaydi. Shunday ekan, ona tilimizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yuksaltirishda, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo'shishda har birimiz tilimizga chuqur hurmat bilan yondashishimiz kerak.

**Prezidentimizning 2020-yil 20-oktabrda imzolangan «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoniga muvofiq ishlab chiqilgan 2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida quyidagilar asosiy vazifa sifatida belgilandi:**

- ▶ 2025-yilga qadar davlat maktabgacha ta'lrimizda o'zbek tilli guruhrar qamrovini 72 foizga, 2030-yilgacha esa 80 foizga yetkazish;
- ▶ 2030-yilga qadar umumta'lum maktablarida o'quv yillari uchun tayanch o'quv rejalarida ona tili fanini o'qitish ko'lamin amaldagi haftada 84 soatdan 110 soatgacha oshirish;
- ▶ olyi ta'lim muassasalarida o'zbek tili kafedralari sonini 2025-yilga qadar 120 taga, 2030-yilgacha esa 140 taga yetkazish;
- ▶ lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida «O'zbekiston milliy qomusi» jildlarini nashr etishni bosqichma-bosqich ko'paytirib borish;
- ▶ 2020-yilda o'zbek tilining lug'at boyligini oshiruvchi 15 ta lingistik, sohaviy-terminologik, izohli lug'atlar yaratish;
- ▶ teleradiokanallar sxandon-boshlovchilarining o'zbek adabiy tilidagi nutq madaniyatini oshiruvchi qayta tayyorlov kurslarida o'qitish tizimini joriy etish va qamrovni 2030-yilgacha 100 foizga yetkazish;
- ▶ 2025-yilga qadar davlat tilida sohaviy ish yurish hujjatlarining yagona elektron namunalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish uchun 14 ta onlayn dastur ishlab chiqish, 2030-yilgacha esa ushbu ko'rsatkichni 25 taga yetkazish;
- ▶ dasturiy mahsulotlarning o'zbekcha ilovalari va elektron lug'at dasturlarini yaratish;
- ▶ xorijliklar uchun o'zbek tilini o'rgatuvchi dasturlar yaratish;
- ▶ 2030-yilga qadar xorijiy olyi ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'rgatuvchi markazlar sonini amaldagi 17 tadan 60 tagacha ko'paytirish;
- ▶ 2025-yilga qadar «O'zbek tilining do'stlari» klublari sonini 30 taga, 2030-yilgacha esa 40 taga yetkazish.



O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, ursf-odatlari va an'analarini hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining, 4-moddasi.



## UMUMMILLAT MULKI

Bir kuni Erkin aka (Erkin Vohidov) Abdulla Qahhorin «Nima uchun ko'cha harakati qoidasini buzgan kishiga militsiya hushtak chaladi-yu, butun bir tilni buzayotgan odamlarga hech kim hushtak chalmaydi?» degan gapini eslab, «Agar til qoidasini buzib, bulg'ab, oyoqosti qilayotganlar jarimaga tortilganda, bizdan ko'ra boy davlat bo'lmasedi, buncha pulni qayoqqa qo'yishni bilmay qolardik», deb lutf qilgandi...

«Til uchun faqat Til qo'mitasi yoki boshqa mas'ul idoralarmas, xalq kurashishi kerak, chunki bu bir tashkilotning emas, xalqning boyligi», – deb ta'kidlardi. «So'z latofati» kitobida yozganidek: «Ona tili umummillat mulki. Demak, til oldidagi mas'uliyat ham umummilli. Men o'zbekman, degan har bir inson o'zbek tili uchun qayg'urmog'i kerak. Unutilgan so'zlarni tiklash, borini boyitib borish, xorijiy atamalarga munosib istilohlar topish yolg'iz tilshunoslarning emas, millatning ishidir».

Iqbol MIRZO,  
O'zbekiston xalq shoiri.

## ONA TILIM

Garchi zug'um qilganlarni yoqtirmadim,  
She'r yozdimu bo'lak ishni qotirmadim.  
Tilim turib o'z tilimda gapirmadim,  
Bir eslasam eziladi bag'ri-dilim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Onam «erkam» deb quchganda tunlar yarim,  
Erkim yo'q deb zirqrirdi bir joylarim,  
Parovozni hansiratgan bug'doylarim,  
Oltinlarim, ma'danlarim, ipaklarim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Kimlar uchun biz edik bir badaviylar,  
O'zbekni qon qaqqatganni uzbek siylar,  
Holimizni qon kuzatdi Yassaviylar,  
Topganimiz handalakdek tilim-tilim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Kimdir mayda millat bo'ldi, kimdir katta,  
Katta millat — Afandisi yo'kdir hatto,  
Biz piyoda, biz boqsanlar yurdi otda,  
Zulm o'tsa faqat sendan o'tdi zulm,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Sen bo'lmasang nima bizga silliq she'rlar,  
Bu dunyoda tili yo'qda dil yo'q derlar,  
Bahoing-ku berib ketgan Alisherlar,  
Yuragimning to'ridagi so'lmash gulim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.


Bir qarasam har shevangda ming jilolar  
Har novdangda, har mevangda ming jilolar.  
Qodiriyalar, Cho'ponlar-u, Abdullolar,  
Sening qaytgan kuning men tug'ilgan yilim,  
Ona tilim, ey muqaddas Ona tilim.

Muhammad YUSUF,  
O'zbekiston xalq shoiri.



Alisher  
NAVOIY.

Qaysi bir millatning ona tili o'z hujatini o'tayolmay, boshqa yot tillar oldida mag'lubiyatga uchrab tiz bukar ekan, unday millat ko'p uzoqlamay, insoniy tuyg'ularidan ajragan holda hayot daftari ustiga inqiroz qalami chekilishi shubhasizdir. Unday millatlar yolg'izgina Vatanlardan emas, balki butun borlig'i bilan tarix yuzidan yo'qolishga majbur bo'ladi.



Alixonto'r'a  
SOG'UNIY.

 25 ОКТЯБРЬ – ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ХОДИМЛАРИ КУНИ

## АНЬАНАЛАР ЭТАДИ ДАВОМ

Инсон хотира билан тирик, деган гапни кўп эшиштгандим-у, у қадар эътибор бермаган эканман. Ота-онам – бу ёруғ оламдаги энг яқин инсонларим оламдан ўтгандан кейингина бу иборанинг маъносини чукуроқ тушунгандекман...



Отам Норбобо Аҳмедов 1946 йилда Қашқадарё вилоятининг Яккабоғ туманида туғилган. Узоқ йиллар вилюят ичкӣ ишлар органларида хизмат қилган. 1994 йили Яккабоғ тумани ИИБ ҲООБ бошлиғи лавозимидан, майор унвони билан пенсияга чиқкан. Онам Муҳаббат Аҳмедова мактабда ўқувчиларга рус тили фанидан сабоқ берган. Улар биз, фарзандларини ўқитиб, олий маълумотли қилишди. Туғилган кун ёки байрамларда оладиган совғаларимиз ичда китобга муҳаббатимиз айрича эди. Акам ва опаларим билан ўқиган китобларимиз бўйича тортишувларни ота-онам невараларига мароқ билан ҳикоя қилганига кейинчалик кўп бор гувоҳ бўлганман.

Оилада кенжা фарзанд бўлганим учунми, отам менинг ичкӣ ишлар органи ходими бўлишимни астойдил истарди. Ҳавасми, қизикишми, ҳархолда, мактабдан келибок, отамнинг бош кийимини кийиб ҳарбийча саломлашганларим кечагидек эсимда...

Айни вақтда ИИВ Ташкилий департamenti Ташкилий-назорат бошқармаси идоравий назорат ва режалаштириш бўлимида муҳим топшириқлар бўйича инспектор лавозимида хизмат қиляпман.

Отам билан соатлаб суҳбатлашишни ёқтирадим. Катта ҳаёт йўлини босиб ўтган отамнинг, айниқса, сўнгги йилларда менга айтган сўзлари ҳозирги хизмат фаолиятимда йўлчи-юлдуз бўляпти, десам, муболага эмас.

Дарвоҷе, устоziлик – улуғ рутба. Истеъфодаги полковник Жамила Султонова ва истеъфодаги подполковник Раҳима Ҳайитова, подполковниклар Шуҳрат Чориев, Шариф Номозов ва бошқа кўплаб фидойи инсонлар борки, улар мана шу улуғ рутбага муносиб ҳаёти ва фаолияти, эзгу ишлари билан мен ва бошқа кўплаб шогирдларига намуна бўлиб келишяпти.

Тўғрилик, ҳалоллик инсон зийнати саналади. Бугун фарзандларимга ана шу инсоний фазилатлар ҳақида сўзлаб берарканман, отонамдан олган тарбиямиз яна аскатади. Оқсан дарё оқмай қолмас, деганларидек, инсон тирик экан, эзгу анъаналар давом этаверади...

Фанишер АҲМЕДОВ,  
майор.




HAYOT  
ULASHIB...

Respublikadagi mavjud qon mahsuloti zaxiralarini yanada mustahkamlash maqsadida har oyning ikkinchi haftasi «Qon donorligi haftaligi» etib belgilangan. Bunda ichki ishlar organlari xodimlari ko'ngilli donor sifatida muntazam ishtirok etib kelishmoqda. Xususan, navbatdagi donorlik aksiyasi IIV Markaziy gospitalining Qon va qon mahsulotlari tayyorlash bo'linmasi hamda Respublika Qon quyish markazining sayyor guruhi hamkorligida o'tkazildi. Unda Markaziy gospital xodimlari hamda vazirlilik Akademiyasi kursantlari beg'araz qon topshirdi.

\* \* \*

IIV Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash qo'shinlariga qarashli Samarqand viloyatida joylashgan 7252-harbiy qism va Surxondaryo viloyatidagi 7257-harbiy qism harbiy xizmatchilar ham «Men donorman!» shiori ostida qon topshirishdi.

Donor o'z qonini berishi bilan kimningdir hayotini saqlab qolishi, unga yangi hayot tuhfa qilishi mumkin. Harbiy xizmatchilar shu ezgu maqsadni anglagan holda o'z xohishlari bilan qon topshirishdi.



Qashqadaryo viloyati IIB Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati hamda JTSB patrul-post xizmati batalyonlari xodimlari viloyat Qon quyish markazida o'tkazilgan beg'araz donorlik tadbirida qatnashdi.

«Donorlik – sog'lom hayat garovi» shiori ostida viloyat Qon quyish markazi bilan hamkorlikda tashkil etilgan tadbirda bunday xayrli ishlar insonparvarlik g'oyalalariga yo'g'irilgani aytilib, donorlik qilishning inson organizmi uchun foydalijihatlari tushuntirildi.

Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi va viloyat Qon quyish markazi kelgusida ham hamkorlikda ana shunday tadbirlarni o'tkazishga kelishib olishdi.

O'z muxbirimiz.





# СТРАЖИ ПРАВОПОРЯДКА – ГЕРОИ НАШЕГО ВРЕМЕНИ

(25 октября – День сотрудников органов внутренних дел)

**«Основная точка опоры государства – это закон, и будет справедливым сказать, что самая эффективная система, способная показать его силу на практике – это сфера внутренних дел».**

Шавкат МИРЗИЁЕВ.

В условиях, когда в разных точках мира наблюдаются нестабильность, вооруженные столкновения, крайне важно обеспечить безопасность и территориальную целостность страны, мир и солидарность в обществе. В решении этой важной задачи особая роль возложена на органы внутренних дел – надежную опору государства и общества.

В последние годы в системе органов внутренних дел, как и во всех сферах, осуществлены масштабные реформы. Внедряются современные методы работы, направленные на поднятие на качественно новый уровень защиту прав граждан на основе Концепции общественной безопасности Республики Узбекистан и Стратегии развития системы обеспечения общественной безопасности на 2022-2025 годы.

В целях профилактики преступности в регионах, устранения причин их совершения на местах проводятся общественные обсуждения правонарушений. В них участвуют инспекторы профилактики, сотрудники

других отраслевых служб органов внутренних дел.

Ныне инспектор профилактики выступает не в качестве проверяющего или надзирателя, а как ближайший помощник в решении



насущных проблем жителей махалли по самому широкому кругу житейских вопросов. Совместная работа инспектора профилактики, помощника хокима, лидера молодежи и женской активистки способствует искоренению право-

**Первые меры по улучшению материально-технической базы органов внутренних дел, учреждению системы подготовки квалифицированных национальных кадров были приняты после обретения государственной независимости.**

**В частности, на основе постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан № 270 от 25 октября 1991 года МВД Узбекской ССР было преобразовано в Министерство внутренних дел Республики Узбекистан. Постановлением были утверждены Положение о министерстве и его структура. Впоследствии эта дата определена в качестве Дня сотрудников органов внутренних дел.**

**Официальный статус праздника обрел после принятия соответствующего Закона от 6 декабря 2006 года. Широкая общественность торжественно чествует представителей сферы в день профессионального праздника, отдает должное людям мужественной профессии за их самоотверженный труд во имя сохранения мира и спокойствия граждан, обеспечения законности и правопорядка.**

По инициативе Президента Шавката Мирзиёева начался период масштабных реформ системы, превращения органов внутренних дел в социально ориентированную профессиональную структуру, оказывающую своевременную и качественную помощь населению, и в которой трудятся кадры, стоящие на защите интересов народа.

В 2016 году в 25-летней истории суверенного Узбекистана был принят Закон «Об органах внутренних дел», в котором определены основные задачи органов внутренних дел, направления и принципы их деятельности.

нарушений в махаллях, решению разноплановых актуальных вопросов населения.

Старшие инспекторы по вопросам женщин выступают в регионах в качестве защитниц соотечественниц. Практическими делами они оказывают содействие в решении вопросов не только правового характера, но и социально-бытового плана. Принимаются меры по оздоровлению в неблагополучных семьях морально-психологической среды.

Жизнь полна непростых испытаний. К сожалению, некоторые



в силу самых различных причин встают на неправедный путь. Но даже те, кто раз переступил порог дозволенного, имеют право, как минимум, на гуманное отношение. Поэтому важно содействовать оступившимся на пути исправления, социализации в обществе. В выполнении этой задачи большую роль играют органы внутренних дел. Сотрудники службы probation совместно с другими заинтересованными организациями занимаются вопросами обучения осужденных профессиям, трудуоустройства, привлечения к предпринимательству, обеспечения их прав и интересов со стороны работодателей.

Еще одно направление работы, значение которого возрастает в последнее время, – организация безопасного туризма. Сотрудники данных подразделений органов внутренних дел вносят вклад в



повышение туристической привлекательности страны, обеспечивают безопасное и содержательное пребывание иностранных гостей и местных любителей путешествий. За последние годы эти подразделения пополнились молодыми кадрами, владеющими иностранными языками, обладающими необходимыми знаниями в области отечественной этнографии, истории, культуры.

Нынешнее время характеризуется углублением процессов глобализации. Общественно-политическая нестабильность в отдельных регионах мира порождает вызовы и угрозы безопасности. Появляются новые виды преступлений, связанные с научно-техническим прогрессом, развитием информационных технологий. Это и пропаганда чуждых идей среди молодежи, распространение наркотических и психотропных веществ, незаконное использование личных данных с целью завладения имуществом и финансовыми средствами. Данная тенденция требует от сотрудников постоянного совершенствования, профессионализма, укрепления материально-технической базы сферы современными технологиями, использования зарубежного опыта.

В подавляющем большинстве случаев именно грамотные действия сотрудников органов внутренних дел обеспечивают общественную безопасность, предотвращают угрозу жизни и здоровью попавших в беду граждан. Исключительно их стараниями в семье возвращаются потерянные родителями дети, вызволяются из неволи лица, ставшие жертвами торговли людьми, обретают вторую жизнь бывшие преступники и правонарушители.

Самоотверженные сотрудники органов внутренних дел готовы днем и ночью, в любую погоду выступить на защиту интересов и прав соотечественников, оберегать их мирный труд во благо Родины. Образцовым служением народу в условиях Нового Узбекистана, когда приоритетной задачей поставлены интересы человека, они вносят достойный вклад в успех широкомасштабных реформ.

Соб. корр.





Sohaviy xizmatlarda

## IZLAR SINOATIN BILADIGANLAR

Jizzax shahrining «Ravalliq» mahallasida yashovchi O.Z. ichki ishlari organlariga murojaat qilib, uyida o‘g‘irlik jinoyati sodir bo‘lganini bildirdi. Aniqlanishicha, hech kim yo‘qligidan foydalangan noma’lum shaxs turarjoyi yotoqxonasidagi temir seyfni kalit tanlash yo‘li bilan oshib, 5 dona tilla uzuk, 1 dona sirg‘a, 320 AQSH dollari va 200 ming so‘m pullarini olib ketgan. Jinoyat qidiruv, kinologiya, huquqbuzarliklar profilaktikasi kabi bir qator sohaviy xizmatlar xodimlari tomonidan jinoyatni ochishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirildi.

Viloyat IIB Ekspert-kriminalistika markazi xodimlari voqeа joyida qoldirilgan barmoq izlaridan nusxa olib, o‘tkazilgan taqqoslash o‘g‘irlik yuz bergan xonadonda mazkur mahalla da istiqomat qiluvchi S.S.ning ham bo‘lganligini ko‘rsatdi. Gumanlanuvchidan seyfda qoldirilgan barmoq izlari xususida izoh so‘ralganida, u aynini tan oldi va 2 dona uzuk, 1 juft sirg‘a, 115 ming so‘m hamda 20 AQSH dollarini qaytarib berdi.

Umuman olganda, soha va killari joriy yilning o‘tgan davrida 1593 marta jinoyat va hodisa joyini ko‘zdan kechirishgan. Mazkur jarayonda 2326 ta daliliy ashyolar olinib, ular asosida 1274 ta sudga oid ekspertrizalar hamda 428 ta tekshirish o‘tkazilib, xulosa va ma’lumotlar tayyorlan-

gan. Bundan tashqari, 9 nafar shaxsi noma’lum murdaning barmoq izlari orqali kimligiga oydinlik kiritilgan.

Qolaversa, daktiloskopik, portret, xatshunoslik, ballistik, kimyoviy, maxsus kimyoviy moddalar, avto-texnik, o‘chirilgan belgilari hamda sovuq qurollarga oid ekspertrizalar o‘tkazilgan. Sodir etilgan 92 ta jinoyat bo‘yicha hodisa joylaridan identifikasiya qilish uchun yaroqli bo‘lgan barmoq va kaft izlari kriminalistik hisobga olinib, natijasi bo‘yicha ma’lumotnomalar tegishli bo‘limlarga taqdim etilgan.

Shuningdek, voqeа joyi atrofida-gi kuzatuv qurilmalari tasvirlariga tushgan hamda fotosuratlar orqali 24 nafar shaxsning biometrik ma’lumotlari aniqlangan. Qisqasi,



Suratda: podpolkovnik Bekzod Hikmatov.

viloyat IIB Ekspert-kriminalistika markazi xodimlari jinoyatlarni «issiq izida» fosh etish hamda tergov harakatlarining samarali

amalga oshirilishiga munosib hissa qo‘shmoqdalar.

**Alijon ABDUSATTOROV,**  
o‘z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

## OZODLIK QADRI

Ichki ishlari organlarida probatsiya xizmati hisobida turgan shaxslar tomonidan qayta jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, afv etilganlarning jamiyatga moslashishiga ko‘maklashish borasida soha xodimlari tomonidan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu jarayon bilan tanishish maqsadida IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Probatsiya xizmati bosh inspektori, podpolkovnik Bekzod Mirzakulov hamrohligida Toshkent viloyati Qibray tumanida bo‘ldik. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, ushu hududda tuzalish yo‘liga o‘tgan, ozodlikning qadriga yetib, turli ishlab chiqarish korxonalarida kasb o‘rganib, halol mehnat qilayotganlar ko‘pchilikni tashkil qilar ekan.

– Men sodir etgan jinoyatim uchun uch yarim yil muddatga ozodlikdan mahrum etilgan edim, – deydi Abduqayum Tursunboyev. – Bir yil qamoqda o‘tirgach, davlatimizning insonparvarlik siyosati tufayli Prezidentimiz tomonidan afv etildim. Hozirda Qibray tumanida IIB Probatsiya guruhida

ro‘yxatda turaman. Ushbu xizmat xodimlari ko‘magida ishga joylashdim.

Qamalishim sababiga to‘xtaladigan bo‘lsam, sanatoriya elektrik bo‘lib ishlardim. Nafsimni jilovlay olmay, ish joyimda o‘g‘rilik qildim. Bilishmadi. Shundan so‘ng yana ko‘proq narsalarni o‘marishni boshladim. Xullas, tibbiyot muassasasi-

Suratda: IIV JXD Probatsiya xizmati bosh inspektori podpolkovnik B. Mirzakulov va Qibray tumanida IIB Probatsiya guruhi katta inspektori, kapitan F. Qibilov hisobda turuvchi A. Tursunboyev bilan.



probatsiya nazorati ostidagi shaxs jazo muddatini o‘tab kelmoqda.

– Jazoni yengilrog‘iga almashtirib, jazoni ijro etish joylaridan oilasi bag‘riga qaytarilgan, probatsiya nazoratiga olingan shaxslarni sog‘lom turmush tarziga qaytarish, ijtimoiy, maishiy muammolarni hal etish choralarini ko‘ramiz. Qayta jinoyat sodir etishga moyillari bilan yakka tartibda alohida profilaktik ishlar olib boramiz. Maqsadimiz – ularning hayotda boshqa qoqlishiga yo‘l qo‘ymaslik, – deydi podpolkovnik Bekzod Mirzakulov.

Abu KENJAYEV,  
«Postda» fotomuxbiri.



ga ko‘p miqdorda zarar yetkazdim. Oxiri qo‘lga tushdim va qamaldim. Mana endi sanatoriya yetkazgan zararni oyma-oy maoshimidan to‘lab kelyapman.

Shuningdek, badanga og‘ir tan jarohati yetkazish, katta miqdorda chet el valutasini davlat chegarasidan noqonuniy olib o‘tish,

fugorolarning turarjoyi daxlsizligini buzish kabi jinoyatlarni sodir etgan mahkumlar bilan suhbatlashdik. Shu asnoda joylardagi probatsiya bo‘linmalari xodimlari zimmasidagi vazifalar naqdadar mashaqqatli ekanligini his etdik. Umuman olganda, Qibray tumanida hozirda 714 nafar



## Sirdaryo viloyati IIB



# **TINCHLIK VA OSOYISHTALIK – ENG USTUVOR VAZIFAMIZ**

Shukrki, xalqimiz xotirjam, emin-erkin hayat kechirmoqda. Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo. Buning zamirida esa barcha huquq-tartibot idoralari qatori ichki ishlar organlari xodimlarining kunlarni tunlarga ulab qilayotgan zahmatli xizmati yotibdi.

Sirdaryo viloyati IIB xodimlari ham xalq manfaatlariga xizmat qilish, fuqarolarning qonuniy huquqlarini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi murosasiz kurashish yo'lida fidoyilik bilan faoliyat yuritmoqda.



Sirdaryo tumani IIB HPB «Yoshlik» hamda «Islomobod» MFY profilaktika inspektorlari – mayor Sherali Shermuhammadov shogirdi, leytenant Ulug'bek Islomqulov bilan.



IIV Sirdaryo Akademik litseyida har bir dars qizg'in savol-javoblar bilan o'tadi.



Yosh xodimlarning sohani chuqur o'rganishda, ichki ishlar organlari tarixini bilishda Sirdaryo viloyati IIB tarixi muzeyining o'rni boshqacha.



Sirdaryo viloyati IIB JTSB PPXB 1-otryad safdar xodimi, safdar Javohirbek To'rzbekov (o'ngda) va 2-otryad haydovchisi, safdar Sardor Musurmonov Guliston shahrining «Yurt bayrog'i» majmuasida xizmat o'tamoqda.



Guliston shahar IIB HPB voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixolog, leytenant Abdumalik Umirboyev shahardagi 4-umumta'lim maktabi o'quvchilari bilan suhbatlashmoqda.



■ Кашкадарыинская область

## ПРИНЦИП «БЛАГОУСТРОЕННАЯ И БЕЗОПАСНАЯ МАХАЛЛЯ» – В ДЕЙСТВИИ

**В рамках Указа Президента страны «О мерах по оздоровлению социально-духовной атмосферы в обществе, дальнейшей поддержке института махалли, а также поднятию на новый уровень системы работы с семьями и женщинами» и на основе принципа «Благоустроенная и безопасная махалля» в 57 сходах граждан Шахрисабзского района ведется последовательная и целенаправленная работа.**

Старший инспектор по вопросам женщин ОПП СОБ ОВД подполковник Мохигул Кенжава и старший инспектор профилактики махалли Оқдарё капитан Азамат Хайтов наладили тесное сотрудничество с активом махалли, что позволяет достигать весомых результатов в работе. Так, совместно с женской активисткой Сарвиноз Камбаровой в индивидуальном порядке на основе программы «Благоустроенная и безопасная махалля» они изучили социально-правовое положение 17 жительниц, по итогам подготовили заключения, которые позволили предупредить правонарушения и обеспечить защиту их прав.



В настоящее время в махалле Оқдарё ведется последовательное претворение в жизнь норм данного постановления.

Старший инспектор по вопросам женщин ОПП СОБ ОВД Шахрисабзского района подполковник М. Кенжава во взаимодействии с группой «Последовательницы Тумарис» и представителями районного отдела Республиканского центра духовности и просветительства в целях профилактики преступлений и правонарушений среди женщин, состоящих на учете ОВД, посетили их дома, провели разъяснительную работу. В центре внимания были также вопросы, касающиеся их трудоустройства.

За 9 месяцев выдано порядка ста охранных ордеров. В результате примирены 52 семьи, разрешено 46 конфликтов. К сожалению, два семейных конфликта разрешить не удалось.

В текущем году на учет было взято 229 женщин, совершивших правонарушения. При этом 317 женщин в результате проведенной индивидуальной профилактической работы сняты с учета. Данная деятельность осуществляется совместно со старшим инспектором группы пробации майором Б. Жураевым.

**Замира РУСТАМОВА,  
подполковник.**

■ Республика Каракалпакстан


## КОГДА ЗА ДЕЛО БЕРУТСЯ КРИМИНАЛИСТЫ

**В ОВД Турткульского района поступило сообщение о том, что у обочины автотрассы, проходящей по территории района, обнаружено тело мужчины лет пятидесяти. Следственно-оперативная группа, выехавшая на место происшествия, тщательно осмотрела местность.**

Было установлено, что мужчину сбила машина. По крохотному кусочку автомобильной краски эксперты-криминалисты установили, что это был автомобиль «Нексия-1». По этой ориентировке приступили к розыску. Через двое суток машину обнаружили в одной из автомастерских, куда ее пригнали для ремонта. Сбежавший с места ДТП владелец транспортного средства был задержан.

Подобное происшествие произошло и на территории Канлыкульского района. Велосипедиста, ехавшего ночью по краю дороги, сбила машина, водитель скрылся с места преступления. Опять помог эксперт-криминалист. Выяснилось, что наезд был совершен грузовиком «ЗИЛ». Розыск увенчался успехом. Автомашину обнаружили в Кунградском районе.

Таковы будни подразделения ЭКЦ, которое по самым незначительным деталям помогает восстановить картину происшествий. Вышеприведенные примеры взяты



из деятельности эксперта-криминалиста капитана А. Арапбаева.

Уроженец Берунийского района Аман Арапбаев после окончания Ташкентского автомобильно-

дорожного института (ныне Ташкентский институт по проектированию, строительству и эксплуатации автомобильных дорог) начал трудовую деятель-

ность в организации содействия обороне (ОСО) «Ватанпарвар». Но уже через год подал документы в органы внутренних дел. Успешно выдержав тестовые испытания, поступил на работу в отделение пожарной безопасности Турткульского РОВД. Затем продолжил деятельность в качестве старшего инспектора УБДД МВД Республики Каракалпакстан. В 2019 году молодого специалиста назначили старшим инспектором в экспертно-криминалистическую группу ОВД Берунийского района. В настоящее время он является старшим экспертом Экспертно-криминалистического центра МВД Республики Каракалпакстан.

– Аман обладает высоким профессионализмом, ответственно подходит к каждому случаю, ибо хорошо понимает, что малейшая неточность в выводах может завести расследование в тупик, а порой – бросить тень на невинного человека, – отметил начальник Экспертно-криминалистического центра подполковник Мубарек Низматдинов.

**Азамат ПИРНИЯЗОВ,  
соб. корр.**



# MEHNAT QILGAN ROHATNING TAXTIGA MINAR

**Sifatli ta'limga kelajakda o'z mevasini beradi.**  
**IIV Surxondaryo akademik litseyida o'quv jarayoniga yangicha, zamonaviy usullarni olib kirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish va shu orqali ta'limga sifatini oshirishga jiddiy e'tibor qaratilayotganining zamirida ham ana shu maqsad yotadi.**

Bu sa'y-harakatlar o'quvchilar erishayotgan yutuqlarda namoyon bo'lyapti. Masalan, o'tgan o'quv yilida akademik litseyni tamomlagan 126 nafar o'quvchining 115 nafari oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirdi. Ularning 25 nafari IIV Akademiyasida, 14 nafari esa boshqa oliy harbiy bilim yurtlarida tahlil olmoqda.

– Quvonarlisi, o'quvchilarimiz nafaqat yurtimizdagagi oliy o'quv yurtlariga, balki xorijdagi universitetlarda ham tahlil olishyapti, – deydi akademik litsey direktori, podpolkovnik Baxtiyor Bo'riev. – Misol uchun, 1 nafar bitiruvchimiz AQSHdagi St. Jons universitetiga grant asosida qabul qilindi. Yana 9 nafar o'quvchimiz Yaponiya, 16 nafari esa Rossiyadagi nu-fuzli oliy ta'limga muassasalariga o'qishga kirkani bizga faxr va iftixon beradi.

Akademik litseyda ayni paytda 340 nafar o'quvchi tahlil olyapti. Ularga 30 nafar malakali pedagog saboq bermoqda. Xorijiy tillardan

dars beradigan 11 nafar o'qituvchi S1 sertifikatiga ega bo'lsa, 1 nafari tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) ilmiy darajasiga ega.

Ta'limga muassasasida tarix, huquq, matematika hamda o'zbek tili va adabiyoti, ingliz tili kabi fanlar bo'yicha alohida o'quv markazi faoliyatining yo'lga qo'yilgani o'quvchilar oliygochlarga puxta tayyorgarlik ko'rishi uchun ayni muddao bo'ldi.

Litsey o'quvchilari sport yo'nallishida ham ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritib kelmoqda. Jumladan, 2023-yilning 16–19-iyul kunlari Andijon shahrida «Usmanov kombat Sistems» Federatsiyasi hamda Yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan o'tkazilgan yoshlar va kattalar o'rtasidagi jahon championatida Asadbek Oltiboyev ham ishtirot etdi. 16 ta davlatdan kelgan 400 nafar sportchi qatnashgan musobaqada Asadbek «Light kontakt» yo'nallishida o'z vazn toifasida finalda tojikistonlik raqibini nokautga uchratib, g'alaba qo'



zondi va oltin medal, championlik kamari, I darajali diplom bilan taqdirlandi.

May oyida Jizzax viloyatida Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan professional ta'limga muassasalari o'rtasida o'tkazilgan «Yosh qutqaruvchi» musobaqasining respublika bosqichida akademik litseyning «Lochin» jamoasi munosib ishtirot etib, faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Mehnat qilgan rohatning taxtiga minar, deydi donolar. Bu yutuqlarning barchasi o'quvchilar jamoasining g'oliblikka qadar qilgan mehnati, o'z ustida ishlagani va ustozlarining bergen saboqlari samarasidir. Litsey jamoasi shu bilan kifoyalanib qolmoqchi emas. Ular yangi o'quv yilida ham marrani baland olishgan.

**Feruza RAHMONQULOVA,**  
**o'z muxbirimiz.**  
*Surxondaryo viloyati.*



## CHEMPIONMISAN CHEMPTION!

**Sport – salomatlik ga-rovi. Boshqa sohalarda bo'lgani kabi, ichki ishlar organlarida ham sport bilan astoydil shug'ullanib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida o'tkazilgan hamda xalqaro musobaqalarda sovrinli o'rinnlarni qo'lga kiritayotganlar ta-laygina. IIV huzuridagi JIED To'rtinchini mintaqaviy hudud 5-tergov hibxonasi tartibot va qo'riqlash bo'limi katta nazoratchisi, safdar Jamshid Jo'rayev ham sportda va xizmatda yuksak nati-jalarga erishayotgan xodimlar sirasiga kiradi.**

Jamshid o'quvchilik kezlari maktabdagi qo'l jangi to'garagi a'zosini bo'lib, dastlab shahar maktablari o'quvchilarini o'rtasida, keyinroq esa viloyat miqyosidagi musobaqlarda g'oliblikni qo'lga kiritdi.

2012 yilda esa Qarshi iqtisodiyot kollejida o'qishi davrida qo'l jangi bilan birga sportning jiu-jitsu turi

bilan ham shug'ulandi. 2015 yil qo'l jangi bo'yicha professionallar o'rta-sida O'zbekiston championatida o'z vazn va yosh toifasida faxrli ikkinchi o'rinni egallagan bo'lsa, 2017-yili jiu-jitsu bo'yicha O'zbekiston championatida 60 kg vazn toifasida champion bo'ldi. Xuddi shu yili Qarshi shahrida bo'lib o'tgan professionallar o'rtasida xalqaro turnir g'olibligini qo'lga kiritdi. Oradan ikki yil o'tib, Qirg'izistonda bo'lib o'tgan aralash jang san'ati bo'yicha xalqaro turnirda 62 kg vazn toifasida ikkinchi o'rinni egalladi.

Ichki ishlar organlaridagi ilk xizmat faoliyatini J. Jo'rayev 2020-yilda IIV huzuridagi JIED To'rtinchini mintaqaviy hudud



34-son manzil koloniyasida boshladi. U mahkumlar bilan ishlash, ularning belgilangan tartib-qoidalariga rioya etishi ni nazorat qilish borasidagi ko'nikmalarni tajribali va malakali us-tozi podpolkovnik Olim Qodirovdan o'rgandi. Shu yili IIV «Dinamo» JTSJ Qashqadaryo viloyati ken-gashi tomonidan huquqni muhofaza qilish organlari o'rtasida o'tkazilgan qo'l jangi sport musobaqasida o'z vazn toifasida g'oliblik shohsupasidan joy oldi.

Toshkent shahrida aralash jang san'ati bo'yicha professionallar o'rtasida 2021-yilda bo'lib o'tgan O'zbekiston championatida o'z vazn toifasida mutlaq g'olib deb topilgan.

Joriy yil «Uzmanov kombat sistemas» sport turi bo'yicha O'zbekiston championatida 70 kg vazn toifasida g'olib bo'lib, iyul oyida Andijon shahrida bo'lib o'tgan jahon championatida Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, Rossiya davlatlari sportchilari bilan bellashib, championlik maqomiga sazovor bo'ldi.

Safdar J. Jo'rayev o'z xizmat vazifalarini ham sidqidildan bajarib, jismoni va jangovar tayyorgarligini oshirish ustida tinmay izlanadi.

– Vazifamiz juda murakkab va mas'uliyatlari, – deydi u. – Huquqlari qonun asosida cheklangan yoki ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar bilan ishlaymiz. Bunda o'ta hushyor va sergak bo'lishimiz lozim.

Bugungi kunda ustozlari Botir Rahmonov va Oybek O'tkirovning rahbarligida mashg'ulotlarini davom ettirib kelayotgan safdar Jamshid Jo'rayev kelajakda jahon arenalida O'zbekiston bayrog'ini yana yuqori ko'tarishiga ishonamiz.

**Sodiq RAHIMOV,**  
**o'z muxbirimiz.**  
*Qashqadaryo viloyati.*



# MA'RIFAT BO'STONI

## QIZILISHTON

Bola edim... Kuz edi... so'rida dars qilib yotibman. Ammam bir burchakda mudrab o'tiribdi... Osmonda mezonlar uchadi. Qondek qizargan tok barglari ohista chayqaladi. O'rik xazonlari unsiz pirpirab to'kiladi. Bog' tomondan yakkash bir sado keladi: «tuk-tuk-tuk, tuk-tuk-tuk». G'ashga tegadi. Xayolingni qochiradi... oxiri bo'lmadi, ammamdan so'radim:

- Nima, u, amma?
- Ammam chochib, ko'zini ochdi.
- Nimani so'raysan, bolam?
- Anavi to'qillatayotganni-da, nima o'zi?
- Ammam bir zum quloq solib turdi. Keyin nosini tupurib, jilmaydi.
- Qizilishton-ku!
- Nega hadeb to'qillatadi? Jonga tegdi-ku?
- Unaqa dema, bolam, – dedi ammam xo'rsinib.– Xudo uni shunga yaratgan, daraxtning qurtini yeb tozalaydi... – Uzoq jim qoldi-da, qo'shib qo'ydi.– Qaniydi, Olloh odamzodning ko'nglidagi qurtlarni tozalaydigan shundoq jonivor yaratса. Hamma jannatga tusharmidi...




O'tkir HOSHIMOV,  
O'zbekiston xalq yozuvchisi.

## HALI IMKONIYAT BOR

1914 - yilda Tomas Edisonning Vest Orenjdagi laboratoriyasiga o't ketadi, 13 ta bino, xususan biznes markazlarining ham kuli ko'kka sovuriladi.

67 yoshli olim jilmaygan cha alanga qarshisidagi odamlarni ovutish bilan band edi. Uni avvaliga aqldan ozdi deb o'ylashadi. Ammon Edison xotirjamlik bilan xodimlarga shunday dedi:

- O'rtoqlar, hammasini boshidan boshlash uchun bundan yaxshi imkoniyat bormi?
- 1931-yilda, Edison 84 yoshida vafot etganida uning nomiga 1093 ta patent ro'yxatdan o'tkazilgan edi. Bu rekordni hali hech bir olim yangilay olgan emas.



## VA'DAGA VAFO



Bu Eronning Zanjon shahrida do'kondor Hoji Hasan sharafiga o'rnatilgan yodgorlik.

Bir kuni uning do'koniga kimdir kiradi va velosipedini Hoji Hasanga omonat si-

fatida qoldirib, negadir qaytib kelmaydi.

Hoji Hasan velosipedni har kuni ertalab do'kon tashqarisiga olib chiqar, egasi kelmagach, kechki payt ichkariga olib kirib qo'yari edi.

Bu holat 45 yil davom etdi. Hoji Hasan shuncha payt omonatning egasini kutdi.

Hoji Hasan olamdan o'tdi, lekin velosiped egasi topilmadi.

Uning vafotidan keyin hukumat shahar markazida do'kondor va velosipedga monument o'rnatdi. Odamlar uni «Va'daga vafo yodgorligi» deyishadi.

## DENGIZ

Bir bolaning poyabzali dengizga tushib yo'qoldi. Sohilda qumlarga shunday yozdi:

«Bu dengiz – o'g'ri»...

Biroz nariroqda bir baliqchi to'riga mo'lgina ilingan baliqni qirg'oqqa tortib olib chiqdi va qumlarga shunday deb yozdi:



«Bu dengiz – jo'mard»...

Bir yigit dengizga cho'kib ketdi. Faryodi falakka o'rlagan ona qumlarga shunday yozdi:

«Bu dengiz – qotil»...

Keksa baliqchi kattakon inju qoplangan chig'anoq topib oldi va qumlarga shunday yozdi:

«Bu dengizning qalbi boy»...

Suv to'lqinlanib sohildagi yozuvlarni o'chirib yubordi va dengiz mavjilana shunday dedi:

– Agar dengiz bo'lmochi bo'lsang, atrofdagilarning so'zlariga ahamiyat bermagin!..

## EYNSHTEYNNING ZUKKO HAYDOVCHISI

Albert Eynshteynning shogirdlari, uni bilganlar olimga taqlid qilishni xush ko'rishardi. Hatto uning haydovchisi ham havas qilib, unikiga o'xshagan mo'ylov va soch turmag'i qo'yib olgan edi.

Eynshteynning odamgarchiligi shu darajada ediki, uchrashuvlarga borganida ba'zida haydovchisini ham o'zi bilan birga to'rga o'tqazishni odat qilgan. Hatto ko'pchilik Eynshteyn deb o'ylab, haydovchiga murojaat qilgan vaqtlar ham bo'lgan.


Haydovchi ham Eynshteynga beriladigan odatiy savollarni, olimning javob berish usullari, hazil-mutoyibaga boy fe'lini, g'alati odatlarini yaxshi o'zlashtirib olgan. Buni sezib yurgan olimning miyasiga navbatdagi aqlbovar qilmas reja tug'ilibdi.

Bir kuni haydovchisidan Nyu Yorkdagи kollejlardan birida o'tadi-gan uchrashuvda o'zining o'rniga ishtirok etishini so'rabdi. Haydovchiga ham Eynshteynga xos g'alatilik, daholarga yarashadigan telbalikdan bir oz yuqqan ekan shekilli, olimning qayta-qayta so'rovidan keyin ko'nibdi. Eynshteyn esa uchrashuv boshlangach, haydovchining qalpog'ini boshiga bostirib, zalning oxirgi qatorida manzarani zavq bilan tomosha qila boshladi. Umuman olganda uchrashuv yaxshi davom etar, olimning qiyofadoshi ham o'ziga topshirilgan rolga kirishib ketgan edi. Ammo ...

O'quvchilardan biri Eynshteynning bir necha kun avval gazetada

bosilgan, bahs-munozaralarga sabab bo'lgan «elektromagnitik kuchlar» nazariyasiga oid savol berguniga qadar to'rdagi «olim»ning kayfiyati chog' edi.

Bu savoldan keyin orqadagi olim sergak tortdi, qalpoqni olib, sochlarni tartibga keltirdi. Hay-



dovchi avvaliga duduqlanib qoldi, fikrlarni chuvalashtirib tashladi. Nihoyat, soniyalar ichida uning ham miyasiga zo'r fikr keldi.

«Nega bu nazariyamni yirik olimlar ham tushunishni istashmayapti, hayronman. Bu aslida juda ham oddiy. Bu ilmiy hodisani hatto shu zalda o'tirgan haydovchim ham juda yaxshi tushunadi», deb u haydovchi kiyimidagi chinakam olimni sahnaga chaqirib olib, vaziyatdan chiqib ketgan ekan. Xalq bekorga «Qozonga yaqin yursang – qorası yuqar», demagan. Yaxshi va ilmlı insonlarga yaqinroq yurishga odatlaning.

**«Biz g'alaba qozonamiz»  
kitobidan olindi.**

 Безопасный туризм

## ГОТОВЫ ПРИЙТИ НА ПОМОЩЬ



**В эти дни в Самарканде проходит значимое мероприятие – международный форум ЮНВТО. Безопасность гостей – задача сотрудников Управления по обеспечению безопасного туризма, которых можно встретить вблизи достопримечательностей города.**



Сотрудники Управления по обеспечению безопасного туризма также организовали прием, охрану и сопровождение представителей 75 делегаций из 29 зарубежных стран и 27 делегаций ООН, ЕС, СНГ, ЮНЕСКО и других международных организаций.

– С начала года древний город посетило более 247

тысяч иностранных гостей из 157 стран мира. Мы поставили перед собой цель добиться того, чтобы у каждого гостя остались самые теплые воспоминания от пребывания в Самарканде, – говорит заместитель начальника УВД области – начальник Управления по обеспечению безопасного туризма при УВД области

«Самой актуальной проблемой глобального туризма является обеспечение гарантированной системы безопасности туристов. Следует отметить, что наблюдающиеся сегодня в разных регионах мира конфликты и нестабильная обстановка оказывают еще более негативное влияние на развитие сферы, чем пандемия...

К огромному сожалению, вследствие этих процессов резко снижается туристический потенциал и количество туристов в популярных и традиционных направлениях, возрастают имеющиеся угрозы и вызовы для безопасного туризма, их отрицательное воздействие также широко распространяется на соседние регионы, разрушаются объекты всемирного

культурного наследия и древние памятники архитектуры, а некоторые – даже исчезают с лица Земли...

Для предотвращения таких негативных явлений мы должны объединить наши силы, действия и устремления, быть более сплоченными. Учитывая сегодняшнюю сложную ситуацию, в целях укрепления прочной правовой базы сферы международного туризмалагаю в рамках Организации Объединенных Наций разработать Глобальный кодекс безопасного туризма».

**(Из выступления Президента Узбекистана Шавката Мирзиёева на 25-й сессии Генеральной Ассамблеи Всемирной туристской организации (ЮНВТО))**



подполковник Элдор Алкаров.

Подразделения турполиции не только следят за общественным порядком, но и оказывают консультативную помощь всем обращающимся иностранцам и приезжим из других городов страны, местному населению по любому вопросу. К слову, каждый сотрудник турполиции знает как минимум три языка – узбекский, русский и английский, но некоторые владеют еще и турецким, китайским, французским языками.

В практике нередки случаи, когда гости оставляют гаджеты или теряют личные вещи. С начала года к сотрудникам за помощью обратилось свыше 5,5 тысячи иностранных граждан.

...Кроме самих сотрудников на постоянное дежурство вышли «специальные патрули» из мобильного отряда. Это выпускники вузов иностранных языков, экономики и сервиса. Они тоже оказывают необходимую помощь туристам.

**Замира БАЛТАЕВА,**  
соб. корр.  
Самаркандская область.



 БИР ҚҮШИҚ ТАРИХИ

# Қодир МИРАШУРОВ:

## «ҲАҚИҚИЙ ҲОФИЗ ҚҮШИҚНИ ЖОНЛИ АЙТИШИ ЗАРУР»



**Богида баҳор яйраган,  
Ёруғ дунё керак менга.  
Шохида булбул сайраган,  
Бир гул диёр керак менга!**

**Тоғлар бошида ётар қор,  
Менга керак вафоли ёр.  
Бағри бутун юзи анор,  
Ақли расо бир ёр керак!**

**Юртлар бўлиб манзил-манзил,  
Қишлоғига қўнганда эл.  
Бўлса эди бир хипча бел,  
Ёруғ дунё керак менга!**

**Йигитки йўлдан қайтмаган,  
Душманга сирин айтмаган.  
Элу юртини ўйлаган,  
Эл ғамхўри керак менга!**

**Богида баҳор яйраган,  
Ёруғ дунё керак менга.  
Шохида булбул сайраган,  
Бир гул диёр керак менга!**

БЕРДАҚ.



**Алишер Навоий, Оғаҳий, Машраб, Бердақ, Чустий, Эркин Воҳидов, Абдулла Орипов, Хайриддин Салоҳ, Тўра Сулаймон, Абдулла Шер каби шоирларнинг шеърларига кўйлар басталаган бир таниқли ҳофиз бор. Унафақат ўзи туғилган диёрида, балки бутун Марказий Осиё давлатларида жуда машҳурдир. Бугун «Бир қўшиқ тарихи» рукнимизда ана шу**

**санъаткор – Қодир Мирашуроев шахсияти ва унинг «Богида баҳор яйраган» дея бошланиб, муҳлислар меҳрини қозонган ижод маҳсулининг яратилиши борасидаги қизиқарли маълумотлар билан бўлишамиз. Уни Дилшод Раҳмонов, Валижон Қодиров, Эргашали Ҳусанов, Воҳиджон Сўфиев каби ўзбекистонлик таниқли хонандалар ўзларига устоз деб билишади.**

Қодир Мирашуроев 1957 йилнинг 1 марта Тоҷикистонда таваллуд топган. Унинг қўшиқлари Ўзбекистон, Қирғизистон ва Қозогистондаги катта авлод вакиллари орасида ҳозиргача севиб тингланади. Ҳофиз 16 ёшидан ашула айта бошлаган.

Энди уни Ўзбекистон билан боғлайдиган энг муҳим жиҳатларга тўхталиб ўтсак. Биринчидан, бўлажак санъаткор Тошкент вилоятининг Бекобод шаҳридаги мусиқа билим юртини тамомлаган. Иккинчидан, ўзининг асл устози дея Ўзбекистон халқ артисти Шерали Жўраевни эътироф этади. Қодир Мирашуроев 25 йилдан кўпроқ вақт мобайнида Тоҷикистондаги Шукур Бурхонов номли ўзбек театрида ишлаганлиги ҳам эътиборга моликдир. У 1989 йилда «Тоҷикистонда хизмат кўрсатган артист» унвонига сазовор бўлган.

Қодир Мирашуроев ўз сухбатларидан бирида «Ҳақиқий ҳофиз қўшиқни жонли айтиши зарур. Тўйларда, бошқа тадбирларда кўрамиз – фақат фонограммадан фойдаланилади. Ҳозир кўпгина қўшиқчилардан «жонли ижрода қўшиқ айтиб беринг», десангиз, айта олмайди, лекин улар «юлдуз». Шунисига мен ҳам ҳайронман. Бу яхшиликка мас!» дея ачиниш ҳисси билан бонг урган эди. Бу сўзлар ҳофизнинг асл санъат учун қанчалар фидойи, содик экан-

лигини, тингловчи олдидаги масъулиятни нақадар чуқур ҳис этишини кўрсатиб турди.

Ҳофиз бу қоидага аввалимбор ўзи амал қиласди. У ҳамиша жонли кўйлади. Мақоламизning бошида қайд этганимиздек, Яратган унга бастакорлик иқтидорини ҳам ато этган. Айниқса, буюк қорақалпоқ шоири Бердақ қаламига мансуб «Керак менга» шеърига 1984 йилда ўзи кўй басталаб, ижро этган таронаси ҳали ҳануз эл орасида машҳур. Ваҳоланки, қўшиқнинг яралганига салкам қирқ йил бўляпти. Ҳа, ана шундай ҳақиқий санъат асари бўлган

ижод намуналари умрбоқий қўшиқлар сирасига киради.

Устоз санъаткор Ўзбекистонга тез-тез келиб турди. Ҳар гал ҳамкасб дўстлари, шогирдлари, муҳлислари билан учрашади. Ижодий давралардаги жонли айтишувларда иштирок этиб, телеканаллардаги кўрсатувларда чиқиши қиласди. Бу эса, албатта, қўшни мамлакатлар бўлган Ўзбекистон ва Тоҷикистоннинг дўстона алоқалари маданият ва санъат орқали янада мустаҳкамланишига хизмат қиласди.

Аброр ПОЁНОВ.



Қодир Мирашуроев ўзбек санъаткорлари даврасида.



**Ҳар кимга илмий, техникавий ва бадиий ижод эркинлиги, маданият ютуқларидан фойдаланиш ҳуқуқи кафолатланади. Интеллектуал мулк қонун билан муҳофаза қилинади.**

**Давлат жамиятнинг маданий, илмий ва техникавий ривожланиши ҳақида ғамхўрлик қиласди.**

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, 53-модда.

25 октябрь – Ички ишлар органлари ходимлари куни

## КАСБИГА САДОҚАТ БИЛАН

Танлаган касбига меҳр қўйиш, хизмат вазифаларига виж-  
донан ёндашиш кишини эл ичра азиз қиласди. Наманган ви-  
лояти ИИБ ЖХХ ЖТСБ Кинология хизмати ветеринар-фельд-  
шери, катта сержант Ризо Юсуфжонов ана шундай фидойи  
ходимлардан.

ИИБ Академиясининг сержантлар таркибини тайёрлаш бўйича олий курсларини тамомлаган Ризо вилоят ИИБ ППХ ва ЖТСБ Кинология хизматида кичик инспектор-кинолог лавозимида иш бошлади. Бу ерда хизмат итини умумий ва маҳсус йўналишлар бўйича тайёрлашда юқори натижаларга эришиб, республика кинологлари ўртасида бўлиб ўтган кўрик-танловларда фахрли ўринларни эгаллади.

2010 йилнинг октябрь ойида вилоят ИИБ ППХ ва ЖТСБ Кинология хизмати ветеринария хизмати бошлиғи лавозимида ветеринария хизмати йўналиши бўйича зарур тажриба ва кўникмалар ҳосил қилиб, малакали мутахассис бўлиб шаклланди.

2019 йилнинг ноябрь ойидан қаҳрамонимиз эгаллаб турган лавозимида хизмат қиляпти.

– Ҳозирда Кинология хизмати питомнигида 36 бош, туман ва шаҳар бўйлимларида 29 бош хизмат итлари парваришиланмоқда, – дейди катта сержант Ризо Юсуфжонов. – Уларнинг биз билан қадамба-қадам юриб, жиноятларни «иссиқ изида» фош этишга ёрдамлашаётгани эътиборга лойик.

Катта сержант Ризо Юсуфжонов «Устоз-шогирд» анъанасини давом эттириб, ёш ходимлар – сафдорлар Шухрат Абдурахмонов ва Ҳабибулла Жўраевга бор билим ва тажрибасини ўргатиб келмоқда. Қолаверса, бошқармада ўтказиладиган тадбирларда, жамоатчилик ишларида фаол. Шу боис шахсий таркиб ўртасида катта ҳурматга эга.

**Жасурбек БЕКМИРЗАЕВ,**  
катта лейтенант.  
Наманган вилояти.



ПРОБАЦИЯ ХИЗМАТИ ФАОЛИЯТИДАН

## ҚОНУНГА ИТОАТ ЭТИБ

Шовот тумани ИИБ пробация гуруҳи ходимлари томонидан жорий йилнинг ўтган даврида 182 нафар маҳкум назорат остига олинган бўлиб, уларнинг барчаси суд ҳукмида белгиланган жазоларни ўтаб келмоқда. Шундан 43 нафари ахлоқ тузатиш ишларига, 18 нафари муайян ҳуқуқдан маҳрум этилганлар, 27 нафари озодликни чеклаш жазосига, 2 нафари эса шартли ҳукм қилинганлардир. Уларнинг 92 нафари тузалиш йўлига киргани учун муддатидан илгари шартли равишда жазодан озод этилди.



Суратда: туман ИИБ пробация гуруҳи катта инспектори, майор Юсуфбой Аҳмедов хизмат пайтида.

Сайёр суд йиғилишларида жазони ўташ даврида белгиланган тартиб-қоидаларга риоя қилган, ишга вижданан ёндашган, тузалиш йўлига ўтган шахсларни муддатидан илгари шартли равишда озод қилиш ёки жазони ўташдан қасдан бўйин товлаган, суд томонидан ўрнатилган тақиқ ва чекловларга риоя қилмаган маҳкумларнинг жазо турларини оғирроқ жазога алмаштириш масалалари ҳам кўриб чиқилмоқда. Ўтган даврда пробация гуруҳи томонидан тақдим этилган маълумотлар асосида мазкур талабларни бажармаган 7 нафар маҳкумнинг жазоси озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлган жазо турига алмаштирилди.

Пробация гуруҳи ходимлари жиноят содир этиб, муқаррар жазодан яшириниб юрган кимсаларни аниқлаш ва қўлга олиш бўйича ўтка-

зилаётган тадбирларда ҳам фаол иштирок этишмоқда. Ички ишлар ор ganlari соҳавий хизмат ходимлари билан ҳамкорликда ўтказилган тезкор тадбирлар давомида пробация гуруҳи ҳисобида турган қидирудаги шовотлик А.Н. жорий йилнинг 2 сентябрь куни Қозогистон Республикаси ҳудудида ушланиб, жазо муқаррарлиги таъминланди.

– Маҳкумлар томонидан қайта жиноят содир этилишининг барвақт олдини олиш мақсадида доимий равища ўрганиш ишларини олиб боряпмиз, – дейди туман ИИБ пробация гуруҳи катта инспектори, майор Юсуфбой Аҳмедов. – Ўрганишлар натижасида назорат остидаги шахслардан 168 нафари тузалиш йўлига ўтгани, 8 нафари жиноят содир этишга мойиллиги борлиги, 6 нафари эса жиноят содир этиш хавфи юқори

экани аён бўлди. Ушбу шахслар томонидан қайта жиноят содир этилишининг олдини олиш бўйича соҳавий хизматлар билан ҳамкорликда профилактик тадбирлар амалга оширилмоқда.

Пробация гуруҳи ходимлари назорат остида турган шахсларнинг турмуш тарзи ҳамда ижтимоий аҳволини ўрганиш, муаммоларига ечим топишга ҳам алоҳида эътибор қаратишмоқда. Хусусан, тегишли ташкилотлар билан ҳамкорликда ўтказилаётган меҳнат ярмаркаларида уларнинг 15 нафари доимий иш ўрнига эга бўлди. Ҳамкорликда амалга оширилаётган бу каби тадбирлар натижасида жорий йилнинг ўтган даврида пробация ҳисобида турган шахслар томонидан қайта жиноят содир этилишига йўл қўйилмади.

**Худойберган ЖАББОРОВ,**  
ўз мухбиримиз.  
Хоразм вилояти.

► ЖИНОЯТ МУҲОКАМАСИ

## НИЗО ҚАЙФУЛИ ЯКУН ТОПДИ



**Қарши шаҳридаги «Отчопар» маҳалласида ёшлар томонидан содир этилган тан жароҳати етказиш жинояти муҳокамасига бағишиланган йиғилиш бўлиб ўтди. Унда вилоят ИИБ ЖХХ ҲПБ, Қарши шаҳар ИИОФМБ ходимлари, «маҳалла бешлиги» ва жамоатчилик вакиллари, жиноят содир этган ёшларнинг ота-оналари иштирок этди.**

Тадбирда вилоят ИИБ ЖХХ ҲПБ бошлиғи, полковник Руслан Теми-

ров жиноятнинг келиб чиқиш сабаблари, унинг содир этилишига имкон яратиб берган шарт-шаротларни танқидий таҳлил қилди.

Мъълум бўлишича, жорий йил 13 сентябрь куни кечки пайт «Отчопар» маҳалласида яшовчи фуқаро В.Б. Қарши тумани «Чаман» МФЙда истиқомат қилувчи Б.А.ни қўшни маҳалла ҳудудига чақиради. Ўзаро низо пайтида В.Б. ёнидаги ўткир тифли жисм билан «рақиби» Б.А.нинг оёғига оғир тан жароҳати

етказган. Оқибатда жабрланувчи олган тан жароҳати оқибатида шифохонага тушади.

Йиғилишда таъкидланганидек, бу ёшларнинг турмуш тарзи, бандлиги, кундалик ва майший муаммоларига, жиноят содир этган шахснинг турмуш тарзига жиддий эътибор қаратганида бу жиноятнинг олди олиниши мумкин эди. Шунга кўра, йиғилишда «маҳалла бешлиги» ота-оналар билан биргалиқда ёшлар ўртасидаги профи-

лактик сұхбатларни кучайтириши, уларни спорт тўғаракларига, ҳунар ўрганишга жалб этиш, оила-турмуш доирасидаги ҳар бир салбий хатти-ҳаракатни муҳокама қилиб, назоратни кучайтириши, бунда кенг жамоатчилик вакиллари, катта ҳаёт тажрибасига эга оқсоқоллар кўмагидан самарали фойдаланиш лозимлиги қайд этилди.

**Аслан ҲУСАНОВ,  
катта лейтенант.  
Кашқадарё вилояти.**

► ТЕРГОВНИ БИЛИМДОНЛАР ОЛИБ БОРДИ



– Ҳар куни хизматга келар эканман, ўзимга «Зиммадаги вазифани қанчалик бажаряпман, ёнимга најот умидида келаётган инсонларнинг ҳақ-хуқуқларини қайдаражада таъминлаяпман?» деб савол бераман, – дейди ИИВ ҳузуридаги Тергов департаменти ўта муҳим ишлар бўйича терговчиси, подполковник Азиз Зокиров.

## ВИЖДОН АМРИ ИЛА

Яқинда у навбатдаги жиноят ишини тергов қилиб, жабрланган ҳокисор бир инсоннинг қонуний манфаатларини тўлақонли равишда ҳимоя қилди. Унга етказилган зарар қопланишига эришди. Шунда ҳалиги кишининг кўзларида ёш қалқиганини кўриб, ўзи ҳам енгил тортди.

Бундай вазиятлар унинг хизмат фаолиятида жуда кўп маротаба учраб турди. Ҳар сафар масалани қонуний ҳал қилиш чораларини кўради. Чунки оиласда унга доимо ҳақиқатпарвар бўлиши кераклигини сингдириб келишган.

...Фирибгардан азият чеккан бир нечта фуқаро топталган ҳукуқини ҳимоя қилишини сўраб, ички ишлар организга ариза билан мурожаат қилади. Бу ишни кўриб чиқишини раҳбарият подполковник А. Зокировга топширади.

Воқеа тафсилотларига тўхталашибиган бўлсак, Сат-

тор Аҳадов (воқеа иштирокчисининг исм-шарифи ўзгартирилган) тадбиркорларга Россиядан олиб келинган сифатли хом ашёлардан узоқ муддатга фойдаланиш учун иссиқхона қуриб беришини айтиб, улардан мўмайгина пулни олган. Кейин феъли айниб, берган лафзидан қайтади. Яъни, чет элдан олиб келинадиган хом ашёнинг ўрнига шу ердан сифатсиз материалларни харид қилади. Натижада орадан ҳеч қанча вақт ўтмасдан, темир қувурлар ва арматуралар коррозияга учрайди.

Аввалига айбини тан олишни истамаган фирибгар, курилиш материалларини Россиядан олиб келганини айтади. Аммо унинг товар олиш учун пул ўтказган барча ҳисоб рақамларини текширган подполковник А. Зокиров бирорта ҳам материал хориждан олиб келинманганигини исботлади. Шундан сўнг С. Аҳадов-

нинг айбини тан олишдан бошқа чораси қолмайди.

Албатта, унинг бу дараҷага етишида, соҳанинг сир-асрорларини эгаллашида устози, истеъфодаги подполковник Алишер Тўйчиевнинг хизматлари катта бўлган.

Фаолияти давомида 500 дан ортиқ жиноят ишларини тергов қилиб, судга юборган лавҳамиз қаҳрамонининг ҳалигача бирорта ҳам материали қайта терговга қайтмаган. Шунга қарамасдан у ўз устида изланишдан тўхтамайди. Соҳага оид турли адабиётларни мутолаа қилиб, билимини янада бойитиб келмоқда. Шу билан бирга, тизимга энди кириб келган ёшларга муңтазам равишда иқтисодий жиноятларнинг мазмун-моҳияти ва тафсилотлари бўйича кенг тушунтиришлар бериб келаётir.

**Михли САФАРОВ,  
ўз мухбиримиз.**



## UZOQ UMR KO'RISH MALHAMI

Asal – xalq tabobati tавсиya etadigan shifobaxsh ne'matlarning shohidir. O'tmishdagi tabiblar asalni bejizga «uzoq umr ko'rish malhami», «hayot sharbati» deb atashmagan. Uning tarkibida inson organizmiga o'ta zarur va foydali bo'lgan yuzdan ortiq biologik moddalar bor. Pifagorning ta'kidlashicha, uning uzoq umr ko'rishiha muttasil asal iste'mol qilishi asosiy sabablardan bo'lgan ekan. Ibn Sino ta'biriha, navqironlikni saqlab qolish uchun asal iste'mol qilib turish kerak. Ayniqsa, yoshi ulg'ayganlarga asal bebafo shifo va quvvat manbaidir. Xullas, asal turli kasallikkarga qarshi kurashishda organizmga darmon bo'lishi qadimdan isbotlangan.

### TANANI TOZALAYDI

Asal tana a'zolarini tozalaydi, me'da-ichak devorlaridagi xillarni yo'qotadi, miyani ortiqcha va zararli narsalardan xalos etadi. Falaj, istiqso, sariq kasalliklari davo bo'ladi. Asalni suvda eritib, og'iz bo'shilig'i chayqalsa, tomoqdagi yiringli yaralarning so'rilib ketishiga yordam beradi. Og'izdag'i jarohat va yaralarni, shuningdek, tanglay, til, hiqildoq, bodomcha bezlar, og'izdag'i illatlarni bartaraf etadi, milk va tishlarni mustahkamlab, oqartiradi.

### SHAMOLLASHDA TABIIY DAVO

Asalli choy balg'am ko'chiruvchi, o'pka shamollashini davolashda samarali vosita. Bulardan tashqari, asal darmonsizlikda, sil kasalligida kishiga quvvat bag'ishlaydi. Buning uchun

asalni sabzi sharbati yoki sut bilan kuniga 60-100 gramdan iste'mol qilish foydalidir.

Asal iste'mol qilib turilganda odam organizmining immunobiologik faolligi, ya'ni bir qator xastalikkarga nisbatan bardoshliligi ortadi. Asal tashqi muolaja sifatida ko'z yallig'lanishi va oq tushishiga barham beradi. Uning sharbati burunga tomizilsa, surunkali tumovga qarshi ta'sir ko'rsatadi.

### YURAKKA QUVVAT

Doimo oz-ozdan asal yeb yurilganda, yurak faoliyati yaxshilanadi, odamning quvvati ortadi, qon tarkibi yaxshilanadi, gemoglobin oshadi va hokazo. Yurak xastaligi bor bemorlarga asalni oz-ozdan iste'mol qilish tавсиya etiladi. Asal sut, suzma, mevalar bilan yeyilsa, yanayam yaxshi bo'ladi.



### BUYRAK KASALLIKLARIDA ASQATADI

Asal tarkibida juda oz miqdorda oqsil bo'lishi bilan birga, unda ortiqcha tuz bo'lmaydi. Buyrak xastaliklarini davolashda na'matakli damlama asal bilan yoki bir-ikki stakan miqdorda turp sharbatiga aralashtirib ichiladi. Mabodo buyrakda qum, zarra, tosh bo'lsa, zaytun yog'i, asal hamda limon sharbatini aralashtirib, bir osh-qoshiqdan kuniga 3 mahal ichish kerak.

### ASALNING OZI SHIRIN

Har qanday shifobaxsh ne'matni ham me'yordan ko'p iste'mol qilish zarar keltirgani kabi asaldan foydalanishda ham mo'tadillikka e'tibor qaratish lozim. «Asalning ham ozi shirin» degan naql bejiz aytilmagan. Katta yoshdagilar bir kunda 100-150 gramdan, yosh bolalar esa 30-40 gramdan ortiq asal yemaganlari ma'qul. Uni o'zboshimchalik bilan har kim o'zicha qo'llashi, bolalar esa 30-40 gramdan ortiq asal yemaganlari ma'qul. Uni o'zboshimchalik bilan har kim o'zicha qo'llashi, bolalar esa 30-40 gramdan ortiq asal yemaganlari ma'qul.

### BILASIZMI?

Asal olingen joyiga qarab ma'lum kasallikkarga shifo bo'lar ekan. Masalan, yuqori nafas yo'li shamollaganlarga tog' asali foyda qiladi. Hazm yo'llari xastaliklarida esa cho'l va dalalardan olingen asal shifo bo'ladi. Yurak xastaliklarida o'rmon asali ko'proq naf keltirsa, buyrak xurujida kashtan daraxti gulining asali qo'llaniladi.

**Gulnoza TURG'UNBOYEVA tayyorladi.**

Tавсиyalarga amal qilishdan oldin mutaxassis bilan maslahatlashing.

## ПОЧЕМУ НУЖНО НОСИТЬ ГОЛОВНОЙ УБОР?

Надвигаются холода, а значит, в обиход снова входят шапки. Низкие температуры – это огромный стресс для волос. Сильный ветер, влажность, возможные колебания температуры – это все делает волосы сухими, ломкими и тусклыми. Но холод вреден не только для самих волос, переохлаждение вредно для кожи головы и для волосистых луковиц. При переохлаждении организм пытается бороться и увеличивает подкожный жировой слой, ухудшающий кровоснабжение луковиц. Но самая главная причина, конечно, сбережение здоровья. Переохлаждение всегда ведет к снижению иммунитета, следовательно, к появлению самых различных заболеваний, частным из которых является простуда. Поэтому носить шапку осенью, зимой и ранней весной необходимо.

Нельзя носить шапки, не соответствующие размеру. Слишком маленький головной убор будет сдавливать голову и перекрывать поступление крови и питательных веществ к луковицам. В результате вы не только получите головную боль, но



и перхоть и раздражение кожи. К тому же, надевая и снимая тесный головной убор, вы неминуемо повредите волосы. Не рекомендуется носить шапки с тугой резинкой, проходящей по затылку и лбу, или со вставками из кожи.

Но уж если вы противник головных уборов, носите хотя бы капюшон, платок или кепку. Они хорошо проветриваются, не сдавливают голову и не дают ей потеть, при этом защищают от отрицательного воздействия низких температур.

## МАССАЖ УШЕЙ – ПОЛЬЗА ДЛЯ ВСЕГО ОРГАНИЗМА

Несмотря на то, что связь ушной раковины с телом кажется неочевидной, специалисты восточной медицины уверены – такой массаж позволяет справиться со многими заболеваниями.

Ушная раковина имеет более 150 биологически активных точек, которые влияют на работу определенного внутреннего органа человека. Правильный массаж за счет воздействия на эти точки помогает добиться следующих результатов: расслабление организма, избавление от стрессов и напряжения, нормализация сна; активация внутренних сил организма, энергетический подъем; усиление иммунитета; профилактика сердечно-сосудистых заболеваний; положительное влияние на работу пищеваритель-

ной системы и других органов брюшной полости; избавление от мигреней, зубной боли; улучшение зрения, также массаж ушей улучшает слух.

Кроме того, людям, ведущим сидячий образ жизни, показан массаж ушных раковин, так как он помогает разогнать кровь и избежать застоя крови в тазу и ногах.

### ПРОТИВОПОКАЗАНИЯ

Несмотря на очевидную пользу массажа ушей, такая процедура, как любой другой массаж, имеет некоторые противопоказания. К ним относятся: острые боли и инфекции; кровотечения; высыпания и раны на поверхности ушных раковин; беременность (с осторожностью); повышенное внутричерепное давление.



■ г. Ташкент

В соответствии с  
Общенациональной  
программой  
«Безопасная и гладкая  
дорога» в республике  
осуществляются  
меры по усилению  
пропагандистско-  
разъяснительной  
работы по обеспечению  
безопасности дорожного  
движения, внедрению  
практического обучения  
детей ПДД.



## ВСЕ НАЧИНАЕТСЯ С ДЕТСТВА



С целью организации обучения детей соблюдению ПДД создаются кабинеты и площадки на территории дошкольных образовательных организаций и школ.

Программа поэтапно реализуется на территории столицы. В общеобразовательной школе № 164, расположенной в Чиланзарском районе, созданы классы и игровые площадки для обучения Правилам дорожного движения. Инспекторы дорожно-патрульной службы



бы проводят занятия под девизом «Дисциплина дорожного движения начинается с детства».

— Мы узнаем много нового и полезного. Инспекторы рассказывают нам о дорожных знаках, безопасном поведении на улице. Чтобы избежать беды, никогда не надо торопиться, а дорогу переходить только на зеленый свет, — говорит ученица 4-го класса Замира Хакимова.

**Озод БОЗОРОВ,**  
младший сержант.



## MUNAJJIMLAR BASHORATI

(23–29-oktabr)



**Qo'y.** Yoshi va lavozim jihatdan yuqori turuvchi tanishlar bilan munosabat qilishda ehtiyyotkor bo'lib, imkon qadar xushmuomalalikni o'rniga qo'ying. Vakolatingizga kirmagan masalalarda tashabbus bildirishdan tiyiling. Bu hafta vaqtincha chetdan kuzatuvchi vazifasini bajaring, bu sizga faqat foyda olib keladi.



**Buzoq.** Salomatlikka jiddiy e'tibor qarating. Jismonan og'ir vazifalardan chetlashib, ta'bni xira qiluvchi barcha holatlardan uzoqlashing. Oddiy hayot tarzi kayfiyatningizga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.



**Egizaklar.** Ish joyingizda kutilmagan va asosiy o'zgarishlar yuz beradi. Nimaiki ishga qo'l urmang, sizga to'liq harakatlar erkinligi taqdim etiladi. Barcha istaklaringiz birinchi talabdanoq amalga oshadi. Ushbu in'omdan unumli va aql bilan foydalanishga harakat qiling.



**Qisqichbaqa.** Bu hafta davomida taqdir yo'liga ta'sir qiluvchi o'zgarishlar kutilmaydi. Yaxshilab o'ylab ko'ring, so'nggi paytlarda faqat o'zingizga vaqt va e'tibor ajratib, yaqin insonlarning istakxohish va qiziqishlari haqida unutib qo'yamadingizmi?



**Arslon.** Sizni har qaysi ma'noda ijodiy davr kutmoqda. Bu hafta qadrdonlar va do'stlar ko'magi, mehr-muhabbatidan to'liq bahramand bo'lasiz. Ushbu g'amxo'rlik ish faoliyatida zimmangizga yuklatilgan murakkab vazifalarning uddasidan chiqishga yordam beradi. Moliyaviy jihatdan ham muvaffaqiyat siz tomonda bo'ladi.



**Parizod.** Bu davrda kuch-quvvat, imkoniyat va salomatlik sizning foydangizga xizmat qiladi. Bundan unumli va maqsadli foydalanish o'zingizga bog'liq. Ushbu kunlarda kayfiyatningiz ham ko'tarinki bo'lib, qo'l urgan ishlaringiz baroridan keladi. Mazkur hafta oilaviy masalalarni, anchadan beri o'z yechimini topa olmayotgan masalalarni hal etish uchun ham qulay davrdir.



**Tarozi.** Bu hafta uchun mushkul vazifalarni rejalashtirmang, aks holda sizga bog'liq bo'lgan sabablar tufayli ularni o'zgartirishga yoki bekor qilishga to'g'ri keladi. Ham shaxsiy masalalar, ham ish yuzasidan ko'p joylarda bo'lishingiz kutilmoqda. Faqat bu orada o'z vaqtida dam olishni, salomatlikka e'tibor qaratishni ham unutmang.



**Chayon.** Omad ko'r jihatdan ishdagi faoliik va tashabbuskorlikka bog'liq. Shuning uchun dadil va olg'a harakat qiling. Xato qilish va maqsadga erishmaslikdan qo'rqmang, «harakatda – baraka» naqliga amal qiling, chunki ba'zan tavakkalchilik ham katta muvaffaqiyat olib kelishi mumkin. Ushbu davr ham ishda, ham oilada o'zingizni ko'rsatish uchun yaxshi fursat.



**O'qtar.** Ulkan ish rejalarini tuzishga oshiqmang, kutilmagan xaridlardan o'zingizni tiyishga harakat qiling, negaki bu haftada kasbiy sohangizga oid qiyinchiliklar yuzaga kelishi, pul yo'qotishlar kuzatilishi mumkin. Imkon qadar atrofdagilar bilan ziddiyatli munosabatlarga bormang. Do'st-birodarlariningizdan yordam so'rashga tortinmang. Dam olish kunlarini sevimli va qadrli insonlar davrasida o'tkazing.



**Tog' echkisi.** Bu hafta «tavakkalchilik – jur'atli ish» shioriga amal qiling. Barcha reja va o'ylab qo'ylgan ishlarni amalga oshirish uchun omadli davr. Ushbu kunlar davomida moliyaviy, muhabbat va do'stilk masalalarida taqdiringizda o'z izini qoldiradigan keskin o'zgarishlar kutilmoqda. Ba'zi qarash va o'y-fikrlarni qayta ko'rib chiqishga to'g'ri keladi.



**Qovg'a.** Sizni biroz notinch va tashvishli kunlar kutmoqda. Bu davrda ikkilanish, jur'atsizlik va shubha har jihatdan sizga halaqit qiladi. Ish faoliyati va ijtimoiy yutuqlar tarozining bir pallasini, oilaviy farovonlik esa ikkinchisini egallaydi. Biroq baribir tanlov muqarrar. Bu borada qaror qabul qilishda yurak amri bilan ish tutgan ma'qul.



**Baliq.** Bu hafta kasb-hunar va moliyaviy jabhada sizga omad kulib boqadi. Biroq har bir ishda boshqaruvni o'z qo'lingizga olib, kuchli ishonch va qat'iyat bilan harakat qiling. Bu davrda hishayajonga berilmay, imkon boricha bosiqlik bilan ish yuritish lozim. Shanba va yakshanba kunlarini toza havoda sayr qilib yoki faol harakatda o'tkazing.

«DINAMO» JTSJ faoliyatidan

## JISMONIY TAYYORGARLIK OSHIRILMOQDA

Joriy yilning o'tgan davrida IIV «Dinamo» jismoniy tarbiya va sport jamiyati Jizzax viloyati kengashi tashabbusi bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari o'rtaida sportning 22 turi bo'yicha 220 kishi ishtirokida 9 ta musobaqa uyushtirilgan. Yil yakuniga qadar yana 5 ta musobaqa tashkil qilish ko'zda tutilmoxda.



Xususan, 7–8-oktabr kunlari ichki ishlар organlari, Milliy gvardiya, bojxona, DXX, FVB xodimlari hamda viloyatdagi harbiy qismlar askar va ofitserlaridan tarkib topgan 12 ta jamoa vakillari 100, 400 va 3000 metr masofaga yugurish bo'yicha kuch sinashdilar. Ushbu bellashuvda birinchi o'rinni ichki ishlар



organlari xodimlari qo'liga kiritdi. Keyingi o'rinnlar DXX hamda Milliy gvardiya viloyat boshqarmalari vakilariiga nasib etdi.

Shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining farzandlari va mahalla yoshlari o'rtaida ham sport musobaqlari uyushtirilmoqda.

20–23-sentabr kunlari esa viloyat jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi bilan hamkorlikda 14 yoshga to'imagan o'g'il-qizlar o'rtaida voleybol bo'yicha birinchilik o'tkazildi. Ushbu musobaqaning shahar va tumanlar hamda viloyat bosqichida 230 nafardan ortiq o'smir qamrab olindi.

— Jamiat qoshida boks, qo'l jangi, taekvondo, erkin kurash, yunon-rum kurashi, milliy kurash, triatlon, universal jang, ushu, voleybol va futbol to'garaklari faoliyat yuritmoqda, — deydi kengash raisi o'rinosari, mayor O'rol Hamzayev. — Bu to'garaklarda 6 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan 491 nafar o'g'il-qiz muntazam shug'ullanishmoqda. Quvonarlisi, mazkur yoshlarning asosiy qismi o'z kelajagini huquqni muhofaza qiluvchi organlar va Milliy armiyamiz saflarida ko'radi. Aytgancha, ular orasida Osiyo va jahon championatlari sovrindorlari ham talaygina.

**O'z muxbirimiz.**  
Jizzax viloyati.

MUASSIS:  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –  
polkovnik  
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinosari –  
mayor Azizjon FAYZIYEV  
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –  
Jahongir SHAROFBOYEV  
Erkin SATTOROV

Navbatchi –  
Foziljon MAMASHARIPOV  
RADIK TUMPAROV

Sahifalovchilar –  
Zokir BOLTAYEV  
Ilhom JUMANOV  
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –  
Abu KENJAYEV  
Ikrom HASANOV

### TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: [www.postda.uz](http://www.postda.uz)

E-mail: [info@postda.uz](mailto:info@postda.uz)

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami  
h/r 23402000300100001010.

Bank kodи 00014.

O'zbekiston Respublikasi  
Iqtisodiyot va moliya  
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v  
470010860262877031101179001  
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-yozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahfalandi.

«Kolorpak» MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Korxona manzili: 100206  
Yunusobod tumani,  
Yangishahar ko'chasi 1<sup>А</sup>-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi  
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda  
0120-raqam bilan ro'yxatga  
olingan.

Buyurtma №3099.  
Bosilish – ofset usulida.  
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma  
taboq. 50451 nusxada chop etildi.

**Obuna raqamlari:**  
Yakka tartibda – 180.  
Tashkilotlar uchun – 366.  
Bosishga topshirish vaqt – 22.00.  
Bosishga topshirildi – 21.00.  
Sotuvda kelishilgan narxda.

**MANZILIMIZ:**  
100070, Toshkent shahri,  
Shota Rustaveli 1-berk  
ko'chasi 9-uy.